

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TABIIY FANLAR FAKULTETI

**«TUPROQSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA»
KAFEDRASI**

Yuldasheva Yashnarxon G'anijonovna

**Mavzu: «Geografiya darslarida qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish
metodikasi» (umumta'lim maktablari misolida)**

**5140600 – Geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr kvalifikastiyasini olish uchun**

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

**BMI kafedraning № __ sonli qarori
«__» _____ 2015 y bilan himoyaga tavsiya etilgan.**

Kafedra mudiri: _____ Yunusov R.Yu.

Fakultet dekani: _____ Artikova H.T.

Ilmiy rahbar, k/o': _____ Qodirov A.A.

MUNDARIJA

KIRISH.....8

I BOB GEOGRAFIYA TA'LIMDA OMMAVIY AXBOROT

VOSITALARI MA'LUMOTLARIDAN FOYDALANISH.

- 1.1. GEOGRAFIYA DARSLARIDA QO'SHIMCHA MA'LUMOTLARDAN
FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI12
- 1.2. GEOGRAFIK BILIMLAR BERADIGAN RO'ZNOMA HAMDA
JURNALLAR VA ULARIDAN FOYDALANISH METODIKASI.....16
- 1.3. RADIOESHITTIRISHLAR YO'NALISHLARI VA ULARIDAN
GEOGRAFIYA DARSLARIDA FOYDALANISH METODIKASI..... 20
- 1.4. GEOGRAFIYA DARSLARIDA TELEVIZION KO'RSATUVLAR,
KANALLARI VA ULARIDAN FOYDALANISH METODIKASI.....26

II BOB. GEOGRAFIYA DARSLARIDA QO'SHIMCHA

TASVIRIY VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI.

- 2.1. UMUMTA'LIM MAKTABLARI GEOGRAFIYA DARSLARIDA
TASVIRIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING O'RNI VA
AHAMIYATI.....34

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimini jahon andozalari asosida isloh qilish, yangi-yangi ilm maskanlari qurish, ularni zamonaviy texnika vositalari bilan jixozlash ishlari izchil davom etmokda. Shubha yo'ki, biz o'qituvchi va murabbiylarning obro'-e'tiborini yanada oshirish, yoshlarimizning bizdan ko'ra bilimli, kuchli va albatta baxtli bo'lishi uchun bundan keyin ham hech narsani ayamaymiz.

I.A.Karimov

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalarni amalga oshirib borib, jamiyatimizning kelajagi uchun har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning mohiyati, zamonaviy fan va texnikaning rivojlanish talablariga mos barkamol avlodni tarbiyalash masalalari izchillik bilan tahlil etilgan. Dasturda ko'rsatilgan dolzarb vazifalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari jamiyat taraqqiyotini har tomonlama yetuk qadrlarsiz, ayniqsa o'qituvchilarsiz tasavvur etish qiyin.

Malakali pedagog mutaxassislar tayyorlash esa ko'p jihatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog'liqdir. Ayniqsa xozirgi axborot texnologiyalariga tayangan holda geografik hodisa, voqealarni hamda iqtisodiy geografik tushunchalarni o'quvchilar, talabalar ongiga yetkazish va shakllantirish har bir mutaxassis o'qituvchidan yuqori ma'suliyat talab qiladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'quvchilar hamda talabalarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmasdan balki ularda zarur ko'nikma va malaka xosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda.

Har bir o'quvchi va talaba dars davomida olgan bilim ko'nikma va malakalar asosida bilimlarni mustaqil egallashi zarur bo'ladi.

Respublikamizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq umumiy o’rta ta’limning barcha bo’g’inlarida o’quvchilarni muntazam bilim olish, ularda bilim olish ehtiyojlarini rivojlantirishni o’quvchilarda mehnat ko’nikmalarini, mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilishni o’z vataniga, xalqiga sadoqat, mexr-muxabbat ruxida tarbiyalashdek vazifalarni belgilaydi.

Bu vazifalarni bajarishda geografik ta’lim alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa tabiiy va iqtisodiy geografiya fanlarini o’qitish borasida milliy dasturda qo’yilgan vazifalarni bajarish cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini tajribalar isbotlamoqda.

Bularning barchasi geografiya fani o’qituvchisidan yuksak pedagogik maxorat, o’z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qila olishni, o’z ish tajribasini tahlil qilib umumlashtira olishni boshqa o’qituvchilarning tajribasini umumlashtirishi va samarali usullar, metodlardan o’z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.

Men ushbu bitiruv malakaviy ishimni ham ana shu tajribalar asosida, o’z amaliyotim davomida sinab ko’rgan dars usullaridan kelib chiqqan holda umumta’lim maktablarining geografiya darslarida qo’shimcha ma’lumotlardan foydalanish mavzusini o’qitishda geografiya ta’limida qo’llaniladigan noan’anaviy usullardan foydalanilgan holda yozishga harakat qildim. Bundan tashqari maktab amaliyoti davomida o’zlashtirilgan ko’nikma va tajribalarimga tayangan holda mavzuni o’qitishda qo’llaniladigan texnik vositalar, ko’rgazmali qurollar, kartalar, jadvallar, grafiklardan foydalanish yo’llarini yoritishga harakat qildim.

Mavzuni o’qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan, yangi axborotlarni to’plash, televideniya, internet tizimi, gazeta-jurnallardan foydalangan holda ularni tahlil qilishga harakat qildim.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda hamma fanlarda bo’lgani kabi geografiya fanlarini oqitishda ham qo’shimcha ma’lumotlardan foydalangan holda tashkil etish maksadga muvofiq bo’ladi. Maktablarda qo’shimcha ma’lumotlar orqali noan’anaviy dars usullarini ishlab chikish uchun

imkoniyatlar va shart-sharoitlar yetarli. Shuning uchun ham aynan shu mavzu buyicha ish olib borishga qaror qildim.

Malakaviy bitiruv ishimni bajarishda quyidagi usullardan foydalandim: savol-javob, taqqoslash, kartografiya, aqliy hujum va boshqalar.

Geografiya ta'limida qo'shimcha ma'lumotlardan foydalangan holda o'quvchilar bilimini ma'lum bir tizimga solish, uning yordamida boshqa tabiiy va iqtisodiy geografik tushunchalarning shakllanishini ancha yengillashtiradi.

Malakaviy bitiruv ishimni yozishda menga yaqindan yordam bergan tuproqshunoslik va geografiya kafedra professor-o'qituvchilariga o'zimning minnatdorchiligimni bildiraman.

Bitiruv ishimni kelgusida umumta'lim maktablarining geografiya darslarida qo'shimcha ma'lumotlardan foydalangan holda mavzularini o'tishga harakat qilaman.

I BOB GEOGRAFIYA TA'LIMDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MA'LUMOTLARIDAN FOYDALANISH.

1.2.GEOGRAFIYA DARSLARIDA QO'SHIMCHA MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI

Hozirgi davr fan-texnika va axborot texnologiyalari davri bo'lib, undagi revolyutsion holatlar inson va uning aqliy zakovatini, texnologik bilimdonligini ishtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotning bosh vazifasiga aylantirdi. Shuningdek, fan-texnika rivojining jadallashuvi xalq xo'jaligining barcha soxalarini texnologiyalashtirdi. Oqibat natijada har qanday mutaxassis qaysi ixtisoslik egasi bo'lishidan qat'iy nazar zamon texnikasi uning ishlash texnologiyasi bilan yaqindan tanish bo'lsangizdagina, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda o'z o'zini tan oladi. Zero, Respublika Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zaruriyati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat baribir kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi, o'rnimizga kim kelishga yoki bosh-qacharoq aytganda, qanday kadrlarni tayyorlashga bog'liqdir".

Shuning uchun ham bugun ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxasislarni bilimdon, zamon texnikasini ishlash texnologiyasidan xabardor kadr bo'lishi va buning uchun esa o'quv mashg'ulotlarida o'qitishning barcha texnologiyalari singari didaktik vositalarini keng qo'llash bo'yicha ularga ma'lumot berish, bugungi kunning bosh vazifasi hisoblanadi.

Ma'nau barkamol shaxs uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida shakllanib boradi. Shunga ko'ra respublikada ta'lim tizimi yangilandi, yangilangan ta'lim tizimiga xos ta'lim mazmuni, ta'lim maqsadi, ta'lim vazifalari o'zgartirilib, ularning mohiyat-mazmuni demokratiyalashtirildi va insonparvarlashtirildi. Yangilangan ta'lim mazmuniga xos ta'lim texnologiyalarni va ta'lim vositalarini yaratish zaruriyati tug'ildi. Zero, barkamol inson shaxsini har tomonlama rivojlantirishda ta'lim mazmuni, ya'ni real borliqdagi voqealar, hodisalar, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini yosh avlod ongiga yetkazishda ta'lim vositalari muhim omil

hisoblanadi. Chunonchi, o'qitishning didaktik vositalari majmui o'quvchi yoshlarning ko'rish va eshitish katalizatorlarini to'liq ishga tushirib o'quv ma'lumotlarini to'liq va har tomonlama mukammal idrok qilishlari e'tirof va tasavvur qilishlari hamda xotirada uzoq vaqt saqlanishini ta'minlaydi. Oqibat natijada voqea va obyektlar mantiqan o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirildi.

Umumta'lim maktablarining geografiya darslarida qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishning geografiya fanlarini o'qitishda ahamiyati katta. Geografiya darslarida qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish mavzusi haqida gapirganda o'qituvchilar qaysi sinflarda dars berishlaridan qat'iy nazar geografiya kurslarida o'quvchilar tabiiy va iqtisodiy geografik rayonlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi bosqichlari hamda tabiiy geografik xususiyatlari ya'ni geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi va tabiatni muhofaza qilish mavzularini qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanib chuqur o'rganadilar. Bundan tashqari, tabiiy va iqtisodiy rayonning aholisi va mehnat resurslari, sanoati va qishloq xo'jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Bu bilim va ko'nikmalar geografiya darslarida qo'shimcha ma'lumotlari orqali o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishga olib keladi. Umumta'lim maktablarida dastlab O'zbekiston tabiatining xilma-xilligi, tabiiy komponentlari va ularning o'zaro aloqadorligi, tabiiy sharoitining bir-biridan farq qilish xususiyatlari mavzulari o'tiladi. O'quvchilar qo'shimcha ma'lumotlari orqali O'zbekiston tabiatining xilma-xilligi, tabiiy komponentlari va ularning o'zaro aloqadorligi, tabiiy sharoitining bir-biridan farq qilish xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bu mavzular orqali o'quvchilar O'zbekistonning jumladan respublikamiz viloyatlarining geografik o'rni, tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari, geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi hamda tabiiy resurslari haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. O'zbekiston jumladan viloyatlarining tabiiy geografik jihatidan joylashganligi va uning tutgan o'rni, saloxiyati, hozirgi holat, rivojlanish

bosqichlari kabi bilimlar hamda yangi mavzuni o'zlashtirish uchun o'quvchilar ko'nikma, ongida yetarlicha tushuncha va yo'nalish hozirlangan bo'ladi.

Maktab geografiya ta'limida qo'shimcha ma'lumotlarning tutgan o'rni va ahamiyati quyidagilardan iborat.

- O'quvchilarning O'zbekiston, jumladan viloyatlarning tabiiy geografik jihatlari haqidagi bilimlarni o'zlashtirish ularda bu mavzuga oid tushunchalarni kengayishiga olib keladi.

- Geografiya ta'limida qo'shimcha ma'lumotlar orqali o'quvchilar O'zbekistonning, jumladan viloyatlarining tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari, geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi hamda aholisi va mehnat resurslari kabi bilimlarga ega bo'ladilar.

- Geografiya ta'limida qo'shimcha ma'lumotlar orqali O'zbekistonning, jumladan viloyatlarning tabiiy sharoiti mavzusini o'rganish bilan hududi, chegaralari, geografik o'rni, aholisi, sanoati, qishloq xo'jaligi, tabiiy sharoiti va resurslari, xo'jaligi, transporti, dam olish va turizm to'g'risidagi bilimlarga ega bo'ladilar.

Bu bilimlar o'quvchilarda O'zbekiston, jumladan viloyatlarning tabiati haqidagi bilimlarni olishga katta yordam beradi.

O'quvchilar ushbu mavzu orqali boshqa viloyatlar, ya'ni O'rta Osiyo mamlakatlarining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari, alohida viloyatlarning tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini, aholining o'sishi va xo'jalik geografiyasini, yuksak rivojlangan rayonlarini, eski sanoat rayonlarini, qoloq agrar rayonlarini, yangi o'zlashtirilayotgan rayonlarini, xalqaro iqtisodiy integratsiya ta'siri kabi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Sobiq ittifoq davrida mamlakatimiz iqtisodiy rayonlari ularning rivojlanish xususiyatlariga unchalik e'tibor berilmasdi. Natijada shu davrda maktabda o'qigan o'quvchilarning O'zbekiston viloyatlari hududlaridagi bilimlari nihoyatda sayoz edi. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach o'z istiqloq va taraqqiy yo'lini o'zi belgiladi. O'z iqtisodiyotini o'zi yuritish kabi yutuqlarini qo'lga kiritdi. Shundan so'ng darsliklar ham qayta ko'rib chiqildi. Maktab geografiya darsliklari ham yangi dasturda qaytadan tuzilib chiqildi. Bunda birinchi qismda O'zbekiston

tabiatiga umumiy ta'rif berilib, ikkinchi qismda O'zbekistonning 8 ta iqtisodiy rayonlari hamda tashkil etuvchi viloyatlariga tavsif berishdan iborat.

Menning malakaviy bitiruv ishim geografiya ta'limida qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish mavzusini o'qitish metodikasiga bag'ishladi, har bir iqtisodiy rayonni o'quvchilarga o'qitish, o'rgatish qanchalik muhim bo'lsa, bu mavzuni o'rganish ham shunchalik katta ahamiyatga ega.

Mavzuda asosan O'zbekiston, jumladan viloyatlarining tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari, xo'jaligi va yirik shaharlari haqida o'quvchilarga qo'shimcha ma'lumotlar orqali tushuncha va ma'lumotlar beriladi. Mavzuning ahamiyati quyidagilardan iborat.

Birinchidan o'quvchining mamlakat haqidagi bilimini uning sarxadlari tabiiy boyliklarini aholisini, xo'jaligi va yirik shaharlarini, viloyatlar haqidagi tushunchalarin ixtisoslashish tarmoqlarini shakllantiradi.

Ikkinchidan O'zbekiston, uni tashkil etuvchi viloyatlarining boshqa iqtisodiy rayonlar orasida tutgan o'rni, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli haqida o'quvchilarga ma'lumot berilib, ularning bilimlarini shakllantirishdan iborat.

Uchinchidan Shu bilan birga o'quvchilarga yozuvsiz karta bilan ishlashning atlasdan ko'chirishni o'rgatish, ularning rassomchilik faoliyatlarini shakllantirish va hozirgi kunda iqtisodiy rayon haqidagi bilimlarini ma'lum bir tizimga solishdan iborat.

To'rtinchidan Darsni tashkil etishda muhim nuqtalar, xususan qanday geografik nomlar yangi terminlar o'rganilishini aniqlab olish ham alohida ahamiyatga ega.

Beshinchidan Oldin o'rganilgan iqtisodiy rayon haqidagi bilimlardan qaysilari qaytariladi, qaysilariga suyanib bilim beriladi, boshqa fanlardan berilgan tushunchalardan qaysilari esa olinadi, ya'ni fanlararo aloqaga ham e'tibor berishiga ham bog'liq. Darsda bu mavzuning o'qitish ahamiyati o'quvchi o'z fanining bilimdoni va o'z ustida tinmay ishlashi ilg'or tajribalari bilan bevosita bog'liq.

1.4. GEOGRAFIK BILIMLAR BERADIGAN RO'ZNOMA HAMDA JURNALLAR VA ULARIDAN FOYDALANISH METODIKASI.

Qaysi kasb egasi bo'lmasin jamiyatda kechayotgan voqea hodisalarni o'rganishda ommaviy axborot vositalari ma'lumotlariga ega bo'lishga harakat qiladi. Ayniqsa "hududlar menejeri" bo'lishi geograf (I.Q.Nazarov 2006 y) bu voqea va hodisalardan o'z vaqtida xabardor bo'lishi, analiz va sintez qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Analiz va sintez uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlar esa ilmiy adabiyotlarda, ro'znomalarda, internet ma'lumotlarida, radio va televizion eshittirishlarda yoritib beriladi. Aynan geografiyaga doir ma'lumotlarni tezkor, sifatli va aniq tarzda yetkazib berishda ro'znomalarni ahamiyati kattadir chunki bugungi kundagi jarayonlar 24 soat oralig'ida o'quvchi qo'lga yetib keladi.

Geografiya ta'limida foydalaniladigan gazetalarni tahlil qilishda ularni guruhlariga bo'lib o'rgandim. Masalan mahalliy ro'znomalarda asosan Buxoro viloyatiga doir iqtisodiy siyosiy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin mahalliy ro'znomalarga quyidagilar kiradi.

1. Buxarskiy vestnik
2. Buxoronoma
3. Buxoro muallimi
4. Buxoro yangiliklari
5. Davr
6. Buxoro yoshlari
7. Buxoro mavjlari
8. Xabarchi
9. Buxoro oqshomi

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi ro'znomalardan ham kerakli geografik ma'lumotlarni olish mumkin. Aynan maktabda geografiya darslarini o'tish jarayonida quyidagi ro'znomalardan ma'lumot olish imkoniyati mavjud.

1. Vaziyat,
2. Pravda Vostoka.
3. Golos Uzbekistana,
4. Narodnoye slova,
5. Davr yoshlari,
6. Fidoyi yoshlar,
7. Darakchi,
8. Novosti Uzbekistana,
9. Dunyo, Mohiyat,
- 10.7 Mo'jiza,
- 11.Sog'lom avlod,
- 12.Jamiyat,
- 13.Xalq so'zi,
- 14.Zakovat,
- 15.Sharq ziyosi

Bu ro'znomalarning aksariyati ma'naviy, madaniy ahamiyatga ega bo'lsada, ulardan dunyo yangiliklari, dunyo hafta ishida, siyosiy yangiliklar saxifalarida mavzulariga dahldor ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Ayniqsa 9-sinflarda "Jahon iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi" kursidan davlatlar haqidagi ma'lumotlarni berib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan Yaponiya,Hindiston,Amerika qo'shma shtatlari mavzularini o'tishda ro'znomalardagi ma'lumotlar asosiy o'rinni egallaydi.

Markaziy Osiyo davlatlari haqidagi umumiy tavsifi ya'ni Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston respublikalarida kechayotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda olib borilayotgan o'zgarishlar ularning mazmun-mohiyati.Ozbekiston Respublikasi bilan aloqalari haqidagi ma'lumotlarni bir necha soat oralig'ida olish mumkin.

Geografiya darslarida faqat ro'znoma ma'lumotlaridan emas balki respublikamizda nashr etilayotgan jurnallardan ham foydalanish mumkin.

Geologiya va mineral resurslar.

Buxoro mavjlari,

Gulxan,

Yoshlik,

Iqtisodiyot va ta'lim,

Kasb mahorati,

Kasb hunar ta'limi,

maktab va hayot,

Maktabda Geografiya,

Muhofaza,

Sirli olam,

Sog'lom avlod uchun,

Xalq ta'limi,

Ekologiya xabarnomasi,

Tafakkur,

Ta'lim taraqqiyoti,

Ta'lim texnologiyalari,

Fan va Turmush

Jurnallarning ma'lumotlari vaqt bo'yicha tezkorlikka ega bo'lmasada, keltirilayotgan fikrlar, g'oyalar, siyosiy-iqtisodiy jarayonlar chuqur tahlil qilinadi.

Yuqorida keltirilgan jurnallarni tahlil qilar ekanmiz "Maktabda geografiya" jurnalidagi ma'lumotlar aynan maktab o'quvchisi yoshiga mos ekanligiga guvohi bo'lamiz, bu jurnal ma'naviy-ma'rafiy, ta'limiy ahamiyatga ega bo'lib O'zbekiston matbuot va axborot agentligiga N* 0551-raqam bilan 2008 yil 23 sentyabrdan ro'yxatga olingan. Jurnal har oyda bir marta chiqariladi, unda dars o'tish usullari O'rta Osiyolik geograf olimlar geografiyadagi sabab oqibat tamoyillari atroflicha talqin etiladi. Ayniqsa "bilasizmi" sahifasida geografik tushunchalarga alohida ahamiyat qaratilib, ularning izohi berib boriladi.

“Geologiya va mineral resurslar” jurnalida esa asosan mineral resurslar ularning vujudga kelishi sabablari, tarqalishi va geologiyasi haqidagi ma’lumotlarga ega bo’lishimiz mumkin.

“Ta’lim taraqqiyoti” , ”Ta’lim texnologiya” lari jurnallarida yangi pedagogik texnologiyalar, noan’anaviy darslar, ularning o’ziga xos xususiyatlari, amalda qo’llash tartibi atroflicha muhokama etiladi va yosh o’qituvchilarga amaliy yordam beradi.

Geografiya darslarida ro’znoma va jurnal ma’lumotlaridan foydalanish metodikasi. Respublikamiz mustaqillikni qo’lga kiritgach o’zining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishni belgilab olishi jamiyatning bir qator sohalarini sobiq qadamlik bilan tubdan yangilash vazifasi kun tartibiga qo’yildi. Bu jarayon respublikamizda keng qamrovli islohotlar o’tkazishni taqozo qilar edi. Ana shunday ish zahirida har tomonlama rivojlangan komil inson shaxsini yaratish uni tarbiyalash va ertangi kun tayanchi sifatida ko’rish masalasi ko’ndalang vazifa qilib belgilab olinda. Bunday insonni kamol toptirishda ta’lim tarbiya tizimi alohida o’rin tutadi. Mustaqillikni dastlabki kunlaridanoq, prezidentimiz tomonidan bu tizimning isloh qilinishi, uning huquqiy maqomini belgilab berishini alohida diqqatga sazovor amaliy yordam beradi. Zero, ta’lim tizimini isloh qilmay ulg’ayib kelayotgan yosh avlodni intellektual jihatdan rivojlantirmay turib ertangi kun kelajagini barpo etish va tasavur qilish qiyin. Ayniqsa ta’lim to’g’risidagi qonun O’zbekiston Respublikasining qonuni va kadrlar tayorlash milliy dasturining qabul qilinishini respublikamizda ta’lim siyosatining naqadar ustuvor vazifa ekanligini belgilab berdi. Bu hujjatlarning mohiyatida ta’lim mazmunini yangicha uslublarda tashkil etish bilim va kasb-hunar egallashning samarali tizimini shakllantirish, ta’lim tarbiya tizimiga yangicha ilmiy yondashuvlarni kiritishga bo’lgan etibor yotadi. Shu nuqtayi nazardan aynan geografiya darslarda roznoma va jurnal malumotlarda foydalanish muhim. Ro’znoma va jurnal malumotlardan foydalanilganda o’quvchining yoshi dunyo qarashi hisobga olingan holda berilgan malumotlardan foydalaniladi.

Mahalliy ro'znomalarda berilgan malumotlarda 7-sinflarda foydalanilganda ijobiy natija beradi. Jurnallar malumotlardan foydalanilganda ularning dars jarayonida davomiyligi uch-besh daqiqadan oshmasligi lozim.

1.5. RADIOESHITTIRISHLAR YO'NALISHLARI VA ULARIDAN GEOGRAFIYA DARSLARIDA FOYDALANISH METODIKASI.

Ta'lim muassasalarida o'qitishning texnikaviy vositalari muhim ta'limiy tarbiyaviy ahamiyat kasb etib, didaktik mazmuniga ega. Zero o'qitishning texnika vositalari o'quvchi-talabalarni axborot, ma'lumotlar bilan ta'minlash, bilimlarni mustahkamlash va nazorat qilish jarayonini boshqarishda o'qituvchiga ko'maklashidagi qurilmalardir. O'qitishning bu qurilmalari axborotlarni uzatadi tasvirlaydi va nazorat qila oladi. Shuning uchun ularni o'quv ma'lumotlarini tasvirlari (kadaskop, diapozitiv, proyektor) tovush uzatuvchi (radio, audio magnitofon va h.k.) larga bo'linadi. Ularni ba'zan pedagogik adabiyotlarda audiovisual qo'llanmalar yoki vasitalar deb ham ataydilar. O'qitishning texnikaviy vositalarning tasniflashdan oldin, ularning funksiyalari va vazifalarini bilib olish maqsadga muvofiq Pedagogik jarayon va o'qituvchilar faoliyatida o'qitishning texnikaviy vositalari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. O'qitishning shakllarini har xillashtiradi va turli axborotlarni qo'lga kiritishni osonlashtiradi.
2. Zamonaviy iqtisodiy tafakkurni egallashga ko'maklashadi va o'z faoliyatini tejimli boshqarishni malakasini hosil qilishga yordam beradi.
3. Ta'lim oluvchilarning umummadaniy, umumtexnik saviyasini oshiradi va ularni estetik jihatdan tarbiyalanishini ta'minlaydi.
4. Insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishda dunyoqarash va xulq odob sifatlarini tarkib topishiga ko'maklashadi hamda jamoada tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish asoslari bilan qurollantiradi.

5. Kasbiy va bilish faoliyatlarini, metodologik jihatdan tartiblashtirishni osonlashtiradi va ijodiy kamolot yo'llarini belgilashga yordam ko'rsatadi.
6. Kun sayin oshib borayotgan axborotlar va o'zlashtirishdagi vaqt o'rtasidagi qarama-qarshliklarning kamayishiga yordam beradi.

Ushbu vazifalarni hal etish nuqrai nazaridan o'qitishning texnika vositalari bir necha turlarga, tiplarga bo'linadi. Didaktik vositalar majmui tizimini, ularning texnik xossalari va ta'limiy-tarbiyaviy asoslarini tadqiq qilgan olimlar, ularni turlashga turli xilda yondashdilar. Masalan, "Didaktika" kitobining avtorlari o'qitishning texnikaviy vositalariga didaktik texnik kinoprojektorlar, televiziorlar, videomagnitafonlar, elektrofonlar, audiovizual vositalar ekranli statik proyeksion qo'llanmalar (diafilmlar, diapozitivlar transparalar) dinamik projektsiyasining ekranli va simolari (kino filmlar, kinofragmitlar, kinokatsavyalar)ga va fonovositalar (grammofon yozuvlari, magnitofon yozuvlari, videoyozuvlar, radio va television ko'rsatuvlar)ga ajratadilar.

G.V.Karpov. V.A.Ramaninlar o'qitishning texnikaviy uzatuvchi texnika vositalarini fotografiya asoslari, o'qitishning statik fotografiya asoslari, o'qitishning statik ekran vositalari, o'quv kinolari, ovozli o'qitish texnikasi, o'quv televidiniyasidan iborat deb bilsalar, L.S. Fridman, V.A.Vadyushin, B.V.Polchevskiylar diapozitivlar, diafilmlar, kinofilmlar axborotlarni uzatuvchi texnika vositalari, bilimlarni nazorat qiluvchi va dasturlashtiruvchi o'quv materiallarini o'qitishning texnika vositalari deb biladilar.

V.I. Xlopovskix o'zining "Texnicheskiye sredstva obucheniya" risolasida o'qitishning texnikaviy vositalarini vizual (statik proyeksion vositalar), tovushli (radio, grammofon, magnitofon), vizual nazorat (tovushli kino, videoyozuv, televidiniya va h.k.)va mashqlar bajaruvchi vositalarga bo'ladi. O'qitishning texnika vositalarini turlash har xil bo'lsada, mazmun jihatdan axborotlarni uzatish (turli ko'rinishda), tasvirlash va o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilishdan iboratdir. Shuning uchun o'qitishning texnikaviy qurilmalari didaktik vositalar majmui tizimida muhim mavqega ega. Fan texnikaviy rivojlanishi mamlakatda ta'lim mazmunini yangilash zaruriyatini keltirib chiqardi va "Ta'lim to'g'risidagi"

qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning yaratilishiga sabab bo’ldi. Bu hujjatlar mamlakat ishlab chiqarishi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash dasturining yaratilishiga asos soldi. Dasturga asosan har qanday mutaxassis ishlab chiqarishning zamonaviy texnikasi va uning ishlash texnologiyasi qurollanishi zarur. Bundan ta’lim muassasalari xodimlari ham mustasno emas. Shuning uchun o’qituvchi tarbiyachilarni ta’limning texnikaviy vositalari bilan yaqindan tanishtirish, o’qitish jarayonida ulardan foydalana olishni zaruriy ijtimoiy-pedagogik hodisadir. Zero, bugungi texnikaviy vositalar axborotlarni uzatish, tasvirlash, mustahkamlash, nazorat qilishni to’laqonli bajara oladi. Bu imkoniyat o’quv axborotlarni o’quvchiga mukammal qilib yetkazishga da’vat etadiganligi sababli, o’rganiladigan ilmiy-nazariy, amaliy metodik ma’lumotlar puxta, ongli va hajmli o’zlashtiriladi. Shularni inobatga olib ta’lim jarayonida o’qitishning texnikaviy vositalaridan foydalanish davr talabi deb bilamiz va uni muhim pedagogik muammo sifatida qabulqilamiz. Amaliyotda foydalaniladigan o’qitish vositaqlarning xususiyati, bajaradigan vazifalari hamda yuqoridagi yondashuvlarga asoslanib, o’qitishning texnika vositalarini quyidagicha guruhlash mumkin.

Jadvalda ko’rsatilgan o’qitishning texnik, tovushli texnik, tasvirli-tovushli texnik vositalari hajm jihatdan katta bo’lgan o’quv ma’lumotlarini aniq va puxta qilib uzatish, axborotlarni tasvirlashning turli shakl va uzatish imkoniyatlariga ega bo’lganligi sababli o’qitish jarayonini nazmundo, o’zlashtirishni samarali qiladi. Texnika vositalaridan samarali foydalanishning ta’lim muassasalarida imkoniyatlar katta.

O’zbekiston Respublikasida tashkil etilgan radio eshittirishlarni va ularning kanallarini tahlil qilish natijasida quyidagi radio kanallar faoliyatini o’rgandim.

Geografiya darslarda radioeshittirishlaridan foydalanish metodikasi.

O’qitishning audio vizual vositalari tizimida video magnitofon va video yozuvlar muhim pedagogik didaktik ahamiyat kasb etadi. Bu o’quv televidiniyasi o’quv tarbiyasining jarayoniga qo’llashning yangi bosqichidir. Video magnitofon va vidioyozuvlar bular magnit plyonkalarda yozib olingan va tasvir hamda tovushni

qayta qurish eshitishga moslashgan qurilmalarda. Vidio yozuvlar plyonkani qayta ishlash montaj qilish imkoniyatlariga ega bo'lganligi sababli darslarda o'quv teleko'rsatuvlarni qo'llash metodikasi takomillashtira oladi va o'quv tarbiya ishlari sifatini yaxshilash samaradorligini oshirishga xizmat qila oladi. U muhim hodisalar voqealar televizion dasturlarni (o'quv ko'rsatuvlarni) aslidek yoki televizor ekranidan yozib olib qayta ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Vidio magnitafonlar video plyerlar va bir blokli bo'lishi mumkin.

Bir blokli videomagnitofonlar to'g'ridan to'g'ri televiziorga o'rnatilgan bo'ladi. Ba'zan bunday televiziorlarni video ikkilik deb ham ataydilar. Videomagnitofonlarning ishlash tamoyilini oddiy magnitofonlarning ishlashiga o'xshaydi. Videomagnitofonlarda kengroq (12,7 mm yoki 50.8 mm) lenta o'rnatiladi.

Ta'lim muassasasi ish faoliyatini ommalashtirish samaradorligini oshirish ta'lim tarbiya jarayonini takomillashtirishda videomagnitofon va vediokamera texnikasining ahamiyati kattadir. Vedomagnitofon va vediokamera ishlash ixcham va ko'p mehnat talab etilmaydigan vosita hisoblanadi. Masalan, birorbir o'quv tarbiya jarayonini ilgarigidek kinofilm olish ehtiyoji paydo bo'lsa, juda ko'p mehnat kuch mablag' talab qiladi. Birinchidan hamma o'quv yurti ham kinofilmni suratga olish imkoniyatiga ega emas ikkinchidan suratga olingan kinofilm plyonkasi qayta ishlash montaj qilish uchun vaqt va mablag' albatta kerak bo'ladi. Uchinchidan suratga oilngan kinofilmni qayta ishlash yoki montaj qilish uchun mutaxassis va montaj qilish vositalari zarur bo'ladi. Bu hamma o'quv yurtida ham bo'lavermaydi. Shuning uchun ko'p mehnat talab qiladigan audiovikual vositalar bilan kinoni suratga olish va qayta ishlash o'rniga videokameradan foydalanishni faoliyatini soddalashtiradi va ishni osonlashtiradi. Chunki hozirgi kunda hamma ham ayniqsa o'qituvchi pedagoglar videokameradan va videomagnitofonlar bilan qiynalmay ishlay oladilar. Shunga ko'ra ilg'or pedagogik tajribalarni ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ishlab chiqarishning dolzarb jarayonlarni vedomagnitofon lentasiga yozib olish osongina videomontaj qilish va namoyish etish imkoniyatlari katta. Keyingi davrda shunday vediokameralar yaratiladiki ularning o'zlari

vediomagnit lentasiga yozib olingan voqealar qayta ishlash talab etilmayda natijada ulardan foydalanish qulay va oson hisoblanadi.

Keyingi paytlarda o'ta zamonaviy tasvirli vediokameralar paydo bo'ladiki eng kichik narsalarning videoyozuvini yuqori tasvirli va baland ovoqli qilib tasvirlab berish imkoniyatlariga ega. Bunda ob'yektning tasviri kichik tuynukdan videoizlovchi kamerasiga tushadi va tasvirni ham ovozni ham kerakli darajada yetkaza olgani uchun tasvir uning xotirasida o'sha zahotdayoq qoladi. O'sha vaqtning o'zidayoq videoyozuvni uncha katta bo'lmagan auditoriyada namoyish qilish mumkin bo'ladi. Katta auditoriyalar uchun ushbu vediokamera olingan yozuv JK-proyektori yoki televizor ekrani orqali namoyish qilishi mumkin.

Televizion texnikalarning takomillashuvi natijasida o'quv televideniyasidan o'quv jarayonida foydalanish oddiy holga aylanib qoldi. Bunda ma'ruza mashg'ulotlarni teleko'rsatuv orqali namoyish etish imkoniyarlari kengaymoqda. Tasvirli videokamera ma'ruza mavzusi bo'yicha ma'lumotlar videoyozuv yordamida videokassettaga tushuriladi va o'quv yurti telestudiyasi orqali namoyish etiladi bu hol o'quv televideniyasini universal vositalarga aylantirib qo'ydi natijada texnika vositalarning barchasini jumladan informatsion hisoblash mashinalari (EHM) muhim o'quv jarayonida television moslamalar sifatida foydalanish mumkin bo'ladi.

Shu o'rinda e'tirof etib o'tish joizki o'quv televideniyasini o'ziga xos xususiyati mavjud bo'lib ular alohida avtanomligi qo'llash imkoniyatining kengliga davomiyligi ketma -ketligi bir-biriga mos o'lishlari ovoz testlari bilan farqlanadi hamda bunday teledarslarning vaqti 35 daqiqa qilib belgilanadi. Bunday vaqtdan o'tgan teledarslarni teleko'rsatuv deb nomlash mumkin. Chunki televizion moslama yordamida beriladgan tasvirlar dars mavzusi asosida berishi kerak. Shuning uchun vedioyozuvlar darsga qadar tayyorlanishi va mazmuni vaqti sinovdan o'tkazilishi kerak.

Videoyozuvlar asosida tashkil qilinadigan telemashg'ulotlarda o'qituvchi oldindan uning mazmuni didaktik xususiyatlari dars ma'lumotlari bilan bir xilligi o'quv tarbiya yo'nalishidagi (telekursiyalar ishlab chiqarish ilg'orlari bilan

uchrashuvlar tarixiy obidalarga sayoxat va h.k.)boshqa didaktik vositalar bilan bog'lab olib borishni loyihalashi lozim. Shunda teledars qiziqarli bo'lib uning oldiga qo'ygan maqsad o'z muddaosiga yetadi.

Teledarslar ya'ni televidiniyasi videoyozuv yordamida videomagnitafon yordamida namoyish etiladigan axborotlar tajribaning ko'rsatishcha bir darsda yoki darslar tizimida ma'lumotlarning hajmi xarakterli xususiyatlariga asoslanib qo'llanilishi darslar tizimida didaktik vazifalar xususiyatini inobatga olish ma'lum videoyozuv lavhalarini ayrim bo'limlarini yoki butun bir videoyozuvni televizor ekranida namoyish etishni nazarda tutadi.

Audiovizual didaktik vositalar tizimida o'quv televidiniyasi va videomagnitofonlarning roli biqiyosligini inobatga olib o'quv tarbiya jarayoninitakomillashtirish axborotlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishdagi ulardan foydalanishda quyidagi metodik usullarga rioya qilishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. o'quv ma'lumotlari aks ettirilgan videoyozuvni to'liq yoki ayrim lavhalarni namoyish etishdan oldin videoyozuv xususida suhbat uyushtirish tushuntirish va o'quvchilarni lavhani idrok etishga tayyorlash videoyozuv mazmuni bo'yicha savol-javob bahs munozara o'tkazish videoyozuv teledars mazmunini maqsadini diqqat bilan tahlil qilish va o'quv materiallari bilan mantiqiy bog'liqligini ta'minlash lozim.

O'qituvchining ta'sirchan jonli va obrazli film haqidagi kirish so'zi o'quvchilarga film mazmuniga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Film mazmunidagi o'quv ma'lumoti shunday vaziyat yaratilib unga rahbarlik qilgan taqdirdagina o'quvchilar tomonidan chuqur idrok qilinadi va o'quv materialini ongli ravishda o'zlashtirish imkoniyatini tug'diradi. Mamlakat ishlab chiqarish to'g'risida ma'lumot beruvchi diofilm yoki qisqametrajli kinofilmlar (mehnat darslarida) o'tkazish yordamida mazkur soha bo'yicha o'quvchi yoshlar bilimlarini chuqurlashtiradi va mamlakat ishlab chiqarishiga havas uyg'otishi tabiiydir.

Shu o'rinda e'tirof etib o'tish joizki o'quv filmlari o'qitishning universal texnik vositasi emas. U o'qitishning boshqa o'quv ko'rsatmasi texnikaviy va kommunikativ texnologiyalarining o'rnini qoplay olmaydi. Shuning uchun uni o'z

o'rnida ishlatish talabga muvofiq. Chunki o'quv kinofilmlarning mazmuni ko'pgina hollarda yaxlit o'quv ma'lumotini bayon qilishga mo'ljallangan

Shuningdek o'quv filmida bayon etiladigan o'quv axborotlari o'quvchi yoshlarning bilish faoliyatlari va o'quv bilim qobiliyatlariga mos kelmasligi mumkin. Shuning uchun doimo o'quv filmi mazmunida o'quv ma'lumotlari bo'yicha o'qituvchi albatta suhbat munozara o'tkazishi kerak.

1.4. GEOGRAFIYA DARSLARIDA TELEVISION KO'RSATUVLAR, KANALLARI VA ULARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Televidiniyaning afzalligi shundan iboratki, g bir o'qituvchiga turli joylarda bo'lgan ko'p sonli kishilarni o'qitish imkonini beradi. Oqitishga fan, texnika va madaniyat sohasidagi eng yirik mutaxassislar jalb qilinishi mumkin. Hozirgi vaqtda Markaziy telavideniya uchinchi dastur orqali maktab o'quvchilari, sirtqi oliy o'quv yurtlarining talabalari, chet tillarini o'rganuvchi kishilarga, shuningdek xalq xo'jaligining turli sohalarida ishlovchi mutaxassislar malakasini oshirishga mo'ljallangan o'quv eshittirishlari berib bormoqda. O'quv eshittirishlari oblast television markazlari tomonidan ham olib borilmoqda. Eshittirishlar mavzitikasi maktablar va oliy o'quv yurtlarining o'quv rogrammalariga mos keladi. Ular asosan kechqurun vaqtlarda olib boriladi va o'quvchilarning mustaqil ishlari bilan bog'langan bo'ladi. Keyingi mashg'ulotlarda o'qituvchi o'quvchilarning televizor orqali olgan bilim va tasavvurlarga aytiladi. Ammo bu ko'rsatuvlarni hamma o'quvchilar ham ko'ra olmaydi. Ko'rsatuvlarning bir qismi ertalabki soatlarda olib boriladi va jadval bo'yicha o'tkaziladigan darslarga to'g'ri keladi. Bular maxsus jihozlangan sinflarda o'qituvchining ishtirokida ko'riladi.

O'quv eshittirishlari dasturga tegishli bo'limlari bo'yicha kinofilmlari, teatr postanovkalarini, tabiat, ijtimoiy hayot va ishlab chiqarishga oid turli hodisalarni ularni mashg'ulotda o'rganish bilan parallel ravishda ko'rsatishni nazarda tutadi. Turli fanlarning eng murakkab bo'limlari bo'yicha (ayrim mavzularni obzor qilish bilan) beriladigan television eshittirishlar katta o'rin egallaydi. Shuningdek zamonaviy texnika bilan tanishtirishni eng yangi jihozlar

va turli xil narsalarni ko'rsatishni tadbiq etib tajribalar qilib ko'rsatishni talab etadigan yangi materialni o'rganish mashg'ulotlari ham o'tkaziladi. Sanoat korxonalarining sexlariga qurilishlariga ilmiy laboratoriyalarga televizion ekskursiyalar tashkil etiladi. Televizion mashg'ulotlarning borishida o'qituvchi tushuntiradi va hikoya qilib boradi. Ko'rgazmali qurollar tajribalar kinofilmlar ko'rsatgani holda ma'ruza o'qiydi. Studiyada bir guruh o'quvchilar bo'ladi. Shu tufayli savollar berish va ularga javoblar olish imkoni mavjud. Hamma teletamoshobinlar o'zlarini bu guruh a'zolaridek his qiladi. O'zbekiston Respublikasi televizion dasturlari mustaqillik yillaridan so'ng mazmun va ko'lami jihatdan tubdan o'zgardi. Yangi ko'rsatuvlar yangi kanallar vujudga keldi. Hozirda respublikamizda quyidagi kanallar faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston telekanali

Dunyo bo'ylab

Madaniyat va ma'rifat

Oilaviy telekanal

Yoshlar telekanali

Sport telekanali.

O'zbekiston telekanali dasturlarini tahlil qilish natijasida quyidagi teleko'rsatuvlarda aynan geografiya darslarida qo'llaniladigan ma'lumotlar borligiga guvoh bo'ldim. "Assalom O'zbekiston", "Iqlim", "Moviy ummon qa'rida". Aynan yoshlarning ilmiy salohiyatini bilimini tafakkurini boyotishga xizmat qiladigan ko'rsatuvlarga "O'yla izla top", "Zakovat" kabi intellektual ko'rsatuvlarni kiritishimiz mumkin.

Shuni aytish kerakki, har bir darsda ikki-uchtagacha kinolavxa, konkret yoki umumiy xarakterdagi o'n-o'n beshtagacha ko'rgazmali material namoyish etiladi. Umuman teledarsni ko'rgazmali dars namunasi desa ham bo'ladi. O'quv ko'rsatuvidan sistemali ravishda foydalanish uchun maktab ma'muriyati har bir o'quv yili uchun dars jadvalini tuzishda televizor ko'rsatuvlar jadvaliga asoslanishlari lozim.

Sentyabr oyida: O'zbekistonning tabiiy sharoiti va

tabiiy boyliklarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati.

Ushbu xujjatli kinokadrlardan o'quvchilarni O'zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari bilan tanishadilar. So'ngra O'zbekistonning geografik o'rni xususiyatlari bilan tanishtiriladi. Asosiy tabiiy boyliklarimiz bilan Prezidentimiz I.A.Karimovning Shvestariyadagi "forum fond" xalqaro iqtisodiy tashkiloti IV sessiyasida 2009 yil 18 iyunda so'zlagan nutqi bilan tanishtiriladi. So'ngra O'zbekiston-ulkan imkoniyatlar mamlakati ekanligini, xalq xo'jaligining yuksak darajada rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar yetarli resurslar mavjudligiga to'xtaladi. Shu bilan bir qatorda xo'jalikni yuritishda qiyinchilik tug'diradigan muammolar haqida ham fikr yuritiladi.

Oktyabr oyida: Respublikaning tarmoqlararo majmualari.

Kursatuvning didaktik maqsadi mustaqil respublikamizda dastlabki paxtachilik, pillachilik va qorako'lchilik kabi ixtisosli tarmoqlaridan tashqari endilikda sanoatning ham ixtisoslashgan tarmoqlarining vujudga kelayotganini tushuntirishdan iborat.

Ekranda respublikamiz xalq xo'jaligining tarmoqlararo majmualari tarkibi, so'ng paxtachilikka ta'luqli hujjatli film namoyish etiladi, chunki paxtachilik majmui respublika xalq xo'jaligining iqtisoslashgan eng muhim tarmoqlararo majmuidir. Kadr ortidan olib boruvchi o'quvchilarni shu majmuaga ta'luqli bilimlar bilan tanishtiradi. Paxtachilikning xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari bilan aloqasi sxemasi ko'satiladi va tushuntiriladi. Undan keyin paxtachilik tarkibidagi chorvachilik, pillachilik, bog'dorchilik va uzumchilikka aloxida to'xtaladi. Bular kinolavxalar, kartalar, sxemalar yordamida yoritiladi.

Noyabr oyida: Transport va iqtisodiy aloqalari.

Bu ko'rsatuvda O'rta Osiyo, shu jumladan O'zbekiston uzoq o'tmishda ancha tarakkiy etgan o'lkalardan biri bo'lgani, bunda Yevropa bilan Osiyoni bog'lovchi Buyuk ipak yo'llarining O'zbekiston xalq xo'jaligi rivojlaninishiga jiddiy ta'sir ko'rsatgani, ulug' Vatan urushi yillari kurilgan Toshkent-Angren, 1957 yilda ko'rilgan Jizzax-Sirdaryo temir yo'llari va ularda tashiladigan yuklar

haqida fikr yurutiladi. Undan tashqari turli davrlarda O'zbekistoda qurilgan yo'l tarmoqlari haqida, jumxuriyatimiz transport tizimida suv transportining ahamiyati katta emasligiga batafsil to'xtaladi. Bu yo'llarning xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun ahamiyati katta ekanligi aloxida uqtiriladi.

Toshkent Markaziy Osiyoning janubdagi katta xalqaro darvoza ekanligi va Toshkentdan turli tomonga havo yo'llari o'tgani haqida batafsil ma'lumot beriladi. Ko'rsatuv respublika elektr stanstiyalarining O'rta Osiyo elektr tizimiga ulanishi bilan O'zbekitonda transportning yangi turi-elektr transporti neft va gaz sanoatini rivojlanishi tufayli quvur transporti vujudga kelishi tushuntiriladi. Ko'rsatuv O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini tavsiflash bilan yakunlanadi.

Dekabr oyida: Farg'ona iqtisodiy rayoni.

Bu ko'rsatuvdan maqsad Farg'ona iqtisodiy rayonining geografik o'rni va tabiiy sharoitining xususiyatlari, xo'jaligida qanday ahamiyat kasb etishini, rayondagi ixtisosli sohalarni ularning shunday tarmoq bo'lganiga qanday omillar imkon berganini, ichki va tashqi aloqalar qanday transport vositasida amalga oshirilishi, shundayligiga sabab nimaligini rayonning iqtisodiy-ijtimoiy muammolari va ularni hal etish yo'llari tushuntiriladi. So'ngra iqtisodiy rayon har bir viloyat haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Ko'rsatuv "Farg'ona vodiysi" nomli o'quv filmi bilan yakulanadi.

Teledars tugagach maktab o'qituvchisi o'rganilgan material yuzasidan suhbat o'tkazadi. O'quvchilar esa tegishli mustaqil va amaliy ishlarni bajaradilar. Televidenya orqali mavzuga oid maxsus ko'rsatuv (teledars) berilganda o'qituvchi o'quvchilar bilan doimo nazoratda bo'lib turishi, o'quvchilar esa zarur yozuvchizuvlarni bajarib borishlari lozim.

Maktabda televizor bo'lishi o'rganilayotgan mavzularga doir muntazam ravishda teleko'rsatuv berib borilishi ko'pgina darslarda kinodan foydalanish imkonini beradi. Demak, televideniyadan dastur asosida o'quv fanlari jumladan, geografiya fanidan mavzular bo'yicha dars berilishi ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Geografiya darslarida televizion ma'lumotlardan foydalanish metodikasi. Audiovizual texnika tizimida o'quv televidiniyasi va videomagnitofonlar muhim didaktik vosita hisoblanadi. Ma'lumki keyingi paytlarda kommunikativ texnologiyalarning tez rivojlanish natijasida ma'lumot, axborotlarni o'quvchi talabalar va o'rgatuvchilarga yetkazishda o'quv televidiniyasi hamda magnitofonlardan foydalanish keng amalga oshirilmoqda. Ular o'quv tarbiyaviy samara berish bilan birga iqtisodiy jihatdan ta'lim berish uchun qulay bo'lib ta'limning yangi interfaol metodlardan intensive foydalanishga imkoniyat yaratadi. Maxsus moslashtirilgan auditoriyalar, jumladan television apparaturalar, videomagnitofonlar, keng ekranli televizorlar bilan jihozlangan o'quv xonalarida nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish borgan sari ommalashmoqda.

G.M.Kodjasnirova va K.V.Petrovlarning yozishlaricha televidiniya harakatlanuvchi ob'yektlarni masofadan turib tasvirlovchi radioto'lqinlardir. Televidiniya barcha audiovisual vositalar singari o'quv ma'lumotlarini uzatish uchun ular o'quv televidiniyasi deb nomlanadi. Chunki ular faqat o'quv-tarbiya jarayonida qo'llaniladi. O'quv televidiniyasining imkoniyatlari, ishlash tamoyillari va uni taminlovchi vositalarni izohlashdan oldin uning ya'ni televidiniyaning tarixiga nazar solaylik.

G.M.Kodjasnirova va K.V.Petrovlarning ma'lumotlagriga kora zamonaviy tasvir elementlarni uzatishga moslashtirgan mexanik televidiniya XX asrning 30 yillarida ishlab chiqilgan. Tasvirni ekranga uzatish tamoyilida ishlaydigan radioto'lqin XIX- asrning oxirlarida portugaliyalik bo'lmagan holda rus olimi P.I.Baxmetevlar tomonidan kashf etildi. Keyinchalik nemis injeneri P.Nipkov Arximed nazariyasidagi spirallardan 30 disk yasadi va shu orqali tasvirni ekranga namoyish etishga urindi va bunga erisha oldi. XX - asrning 30 yillarida elektron televizorlar ishlab chiqila boshlandi. Uning yaratilishi V.K.Zvoriken va F.Farisuort (AQSH) K.Svinson (Buyuk Britaniya) A.I.Adamson V.P.Trabovskiy. S.I.Katayev nomlari bilan bog'liq muntazam ravishda teleko'rsatuvlarni oq- qora tasvirda namoyish etish 1938 yilda va rangli tasvirda namoyish etish 1967 yildan boshlab amalgam oshirila boshlandi. Hozirgi paytda dunyoda rangli tasvirda

namoyish etishning uch sismavzusi mavjud. AQSH, Kanada. Yaponiya va markaziy hamda janubiy Amerika mamlakatlarida NTSTS sismavzusi Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqa G'arbiy Yevropa mamlakatlarida televidiniyasining sismavzusi MDHda va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida Senom sismavzusi ishlamoqda

XX- asrning 10 yillarida kabelni televidiniyaning paydo bo'lishi munosabati bilan o'quv televidiniyalariga keng yo'l ochilib, ta'lim jarayonida televidiniyadan foydalanishi yo'lga qo'yildi. Keyingi yillarda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot o'quv mashg'ulotini ma'ruza shaklida o'tkazish, amaliy mashg'ulotlar bilimlarni televidiniyadan foydalanish amalgam oshirish imkoniyati mavjud, balki o'z jarayonlarni kuzatish faoliyatini nazorat qilish ham televidiniya orqali amalga oshirilish mumkin. Buning uchun o'quv muassasasida kichik telestudiya tashkil qilish kerak. Telestudiya faoliyatini yolga qo'yish uchun o'quv muassasasi rahbarlari ko'rsatmasiga binoan o'quv yurti uchun telestudiyani ta'minlovchi vositalar televizorlar uzatuvchi moslamalar kabellar anketalar kameralar va h.k. O'quv yurtida bo'lishi lozim. Bundan tashqari sinf xonalari auditoriyalarda ham yordamchi moslamalar yordamoda televizorlar o'rnatiladi va ularga axborotlar mashg'ulotlarning ma'lumotlar telemarkazdan uzatiladi va boshqariladi.

Bunda efirdan uzatilgan signallar television qabul qiluvchisi (televizor)ning kinoskopiga uzatiladi. Buni television qabul qiluvchi (priyomning) tuzilnasida ham ko'rish mumkin. Ta'lim muassasasi (umumiy, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar bilim yurtlari, oliy ta'lim) da telestudiya uchun telemarkaz uning uchun xona joy ajratilgan bo'lib bu xona telemoslamalar aparaturalar va pult bilan jihozlangan bo'lishi darkor. Telmarkaz uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan kasb egalari operator telemuhandis va boshqaruvchi bo'lib, o'quv yurti rahbariyati bilan hamkorlikda ishlashi lozim. Sinf xonalarida o'rnatiladigan televizorlar o'tkir yorug'likdan himoyalangan holda shkaftga joylashtirilgan bo'lishi zarur.

Bularning barchasining holati saqlanishi xavfsialigini ta'minlash uchun telemarkaz xodimlari mas'ul va javodgar shaxslar hisoblanadilar. Telemarkaz faoliyatini yo'lga qo'yish uchun o'quv yilining boshda umumiy o'rta ta'lim

maktabi bo'lsa fan metod birlashmalari o'rta maxsus va oliy ta'lim maktablari bo'lsa kafedralar o'quv yilida tashkil qilinadigan telemashg'ulotlar uchun dastur tayyorlab berishlari va dastur asosida telemashg'ulotning videoyozuvlari yoki markaziy telestudiyalar dasturlariga kiritilgan ma'ruzalar seminarlarning mavzusi muddati o'tkazish soati taqdim qilishlari lozim. Buning uchun telemashg'ulotlarda o'rnatiladigan mavzularni o'quv yurti sharoiti va ehtiyojiga moslash lozim.

Tajriba shundan dalolat bermoqdaki o'quv televidiniyasidan foydalanish mutlaqo o'qituvchining o'quv tarbiya jarayonini boshqaruvchilik salohiyatini pasaytirmayda va muayyan tarkibdagi o'quvchi talabalar faoliyatini yo'lga qo'yish ularning o'quv bilim faolligini boshqarish uchun muhim tashkiliy metodik ishlar tizimini yaratishga o'quv teleko'rsatuv mazmunidan ma'lumotlar axborotlarni o'quvchilar tomonidan mantiqan aniq idrok qilishga tayyorlashga ayrim o'quvchilar yoki guruh uchun kerakli teledasturlarni tashkil etish imkoniyatini tug'dirishga didaktik vositalar majmui bilan ishlashga qiziqishni uyg'otadi va telemashg'ulot jarayonida qo'lga kiritgan o'quvchi talabalar bilimini tekshirish aniqlashi va baxolash uchun qulay sharoitlar yaratadi

Telemashg'ulotlarning qimmatli va afzallik tomoni shundaki ular yordamida idrok etilgan axborotlar o'quvchi talabalarning mustaqil bilim olish jarayoni bilan hamohangdir. Bunday telemashg'ulotlar tadqiqot natijalariga kora o'quvchi talabalar bilish faolligini oshirish o'qishga qiziqishini rivojlantirish mustaqil ishlash konikma malakalarni rivojlantirish bilan birga ularning shaxsiy sifatlarini tarkib toptirish ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini yuksaltirishga yordam beradi.

Chunonchi o'quv televidiniyasi nafaqat o'quvchi talabalarni axborotlar ma'lumotlar bilan qurollantirishga xizmat qiladi, balki u o'quv yurti ma'muritining o'quv mashg'ulotlarining sinf xonalari laboratoriyalar auditoriyalarda borayotganligi o'qituvchining xabari bo'lmagan holda nazorat qilish uchun ham xizmat qiladi. Shuning uchun muhim ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar anjumanlar seminarlar bayramlarni auditoriyadan tashqari ijtimoiy foydali tadbirlarni ham namoyish etish uchun xizmat qila oladi. Masalan o'quv yurti

raxbarlari bevosita telemarkazdan turib o'quv mashg'ulotlari tadbirlar ijtimoiy foydali ishlarning qay tarzda o'tayotganligini kuzatish imkoniyatiga egalar. Bu o'quv yurtida mavjud o'quv televidiniyasini ta'minlovchi vositalar televizorlar videokameralar foydali ishlarning qay tarzda o'tayotganligini kuzatish imkoniyatiga egalar. Bu o'quv yurtida mavjud o'quv televidiniyasini ta'minlovchi vositalar televizorlar videokameralar televideoapparaturalar pult kabellar va boshqa moslamalar yordamida amalgam oshiriladi.

II BOB. GEOGRAFIYA DARSLARIDA QO'SHIMCHA TASVIRIY VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI.

2.1. UMUMTA'LIM MAKTABLARI GEOGRAFIYA DARSLARIDA TASVIRIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING O'RNI VA AHAMIYATI.

Umumta'lim maktablarining geografiya darslarida tasviriy vositalardan foydalanish xaqida gapirganda uqituvchilar qaysi sinflarda dars berishlaridan qat'iy nazar geografiya kurslarida o'quvchilar tabiiy va iqtisodiy geografik rayonlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi bosqichlari hamda tabiiy geografik xususiyatlari ya'ni geologik tuzilishi, reliefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi va tabiatni muhofoza qilish mavzularini tasviriy vositalardan foydalanib chuqur o'rganadilar. Bundan tashqari, tabiiy va iqtisodiy rayonning aholisi va mexnat resurslari, sanoati va qishloq xo'jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Bu bilim va ko'nikmalar geografiya darslarida tasviriy vositalari orqali o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishga olib keladi. Umumta'lim maktablarida dastlab O'zbekiston tabiatining xilma-xilligi, tabiiy komponentlari va ularning o'zaro aloqadorligi, tabiiy sharoitining bir-biridan farq qilish xususiyatlari mavzulari o'tiladi. O'quvchilar tasviriy vositalari orqali O'zbekiston tabiatining xilma-xilligi, tabiiy komponentlari va ularning o'zaro aloqadorligi, tabiiy sharoitining bir-biridan farq qilish xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bu mavzular orqali o'quvchilar O'zbekistonning jumladan respublikamiz viloyatlarining geografik o'rni, tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari, geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi hamda tabiiy resurslari haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

O'zbekiston jumladan viloyatlarining tabiiy geografik jihatidan joylashganligi va uning tutgan o'rni, salohiyati, hozirgi holat, rivojlanish bosqichlari kabi bilimlar hamda yangi mavzuni o'zlashtirish uchun o'quvchilar ko'nikma, ongida yetarlicha tushuncha va yo'nalish hozirlangan bo'ladi.

Maktab geografiya ta'limida tasviriyy vositalarning tutgan o'rni va ahamiyati quyidagilardan iborat.

- O'quvchilarning O'zbekiston, jumladan viloyatlarning tabiiy geografik jihatlari haqidagi bilimlarni o'zlashtirish ularda bu mavzuga oid tushunchalarni kengayishiga olib keladi.
- Geografiya ta'limida tasviriyy vositalar orqali o'quvchilar O'zbekistonning, jumladan viloyatlarining tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari, geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi hamda aholisi va mehnat resurslari kabi bilimlarga ega bo'ladilar.
- Geografiya ta'limida tasviriyy vositalar orqali O'zbekistonning, jumladan viloyatlarning tabiiy sharoiti mavzusini o'rganish bilan hududi, chegaralari, geografik o'rni, aholisi, sanoati, qishloq xo'jaligi, tabiiy sharoiti va resurslari, xo'jaligi, transporti, dam olish va turizm to'g'risidagi bilimlarga ega bo'ladilar.

Bu bilimlar o'quvchilarda O'zbekiston, jumladan viloyatlarning tabiati haqidagi bilimlarni olishga katta yordam beradi.

O'quvchilar ushbu mavzu orqali boshqa viloyatlar, ya'ni O'rta Osiyo mamlakatlarining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari, aloxida viloyatlarning tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini, aholining o'sishi va xo'jalik geografiyasini, yuksak rivojlangan rayonlarini, eski sanoat rayonlarini, qoloq agrar rayonlarini, yangi o'zlashtirilayotgan rayonlarini, xalqaro iqtisodiy integratsiya ta'siri kabi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Sobiq ittifoq davrida mamlakatimiz iqtisodiy rayonlari ularning rivojlanish xususiyatlariga unchalik e'tibor berilmasdi. Natijada shu davrda maktabda o'qigan o'quvchilarning O'zbekiston viloyatlari hududlaridagi bilimlari nihoyatda sayoz edi. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach o'z istiqloq va taraqqiy yo'lini o'zi belgiladi. O'z iqtisodiyotini o'zi yuritish kabi yutuqlarini qo'lga kiritdi. Shundan

so'ng darsliklar ham qayta ko'rib chiqildi. Maktab geografiya darsliklari ham yangi dasturda qaytadan tuzilib chiqildi. Bunda birinchi qismda O'zbekiston tabiatiga umumiy ta'rif berilib, ikkinchi qismda O'zbekistonning 8 ta iqtisodiy rayonlari hamda tashkil etuvchi viloyatlariga tavsif berishdan iborat.

Menning malakaviy bitiruv ishim geografiya ta'limida tasviriy vositalardan foydalanish mavzusini o'qitish metodikasiga bag'ishlandi, har bir iqtisodiy rayonni o'quvchilarga o'qitish, o'rgatish qanchalik muhim bo'lsa, bu mavzuni o'rganish ham shunchalik katta ahamiyatga ega.

Mavzuda asosan O'zbekiston, jumladan viloyatlarining tabiiy va iqtisodiy geografik o'rnini, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari, xo'jaligi va yirik shaharlari haqida o'quvchilarga tasviriy vositalar orqali tushuncha va ma'lumotlar beriladi. Mavzuning ahamiyati quyidagilardan iborat.

Birinchi o'quvchining mamlakat haqidagi bilimining uning sarhadlari tabiiy boyliklarini aholisini, xo'jaligi va yirik shaharlarini, viloyatlar haqidagi tushunchalarini ixtisoslashish tarmoqlarini shakllantiradi.

Ikkinchi o'zbekiston, uni tashkil etuvchi viloyatlarining boshqa iqtisodiy rayonlar orasida tutgan o'rnini, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli haqida o'quvchilarga ma'lumot berilib, ularning bilimlarini shakllantirishdan iborat.

Uchinchi Shu bilan birga o'quvchilarga yozuvsiz karta bilan ishlashning atlasdan ko'chirishni o'rgatish, ularning rassomchilik faoliyatlarini shakllantirish va hozirgi kunda iqtisodiy rayon haqidagi bilimlarini ma'lum bir tizimga solishdan iborat.

To'rtinchi Darsni tashkil etishda muhim nuqtalar, xususan qanday geografik nomlar yangi terminlar o'rganilishini aniqlab olish ham alohida ahamiyatga ega.

Beshinchi Oldin o'rganilgan iqtisodiy rayon haqidagi bilimlardan qaysilari qaytariladi, qaysilariga suyanib bilim beriladi, boshqa fanlardan berilgan tushunchalardan qaysilari esa olinadi, ya'ni fanlararo aloqaga ham e'tibor berishiga ham bog'liq. Darsda bu mavzuning o'qitish ahamiyati o'quvchi o'z fanining bilimdoni va o'z ustida tinmay ishlashi ilg'or tajribalari bilan bevosita bog'liq.

Yangi ta'lim tizimiga o'tilayotgan hozirgi davrda har bir fanning o'qitish mazmunini qayta tahlil va bunda tubdan islox qilish nuqtai nazarida yondashuv kerak bo'ladi.

Mamlakatimiz mustaqilikga erishgandan keyin sobiq Sovet davridan "meros" qolgan eski uskunalarining yangi va zamonaviylari bilan almashtirish, barcha soxalarni kompyuterlashtirish ish yuritish shaklini tubdan o'zgartirish masalalari keskin o'rta qo'yildi.

Hozirgi kunda nafaqat informatika balki boshqa fanlarni ham o'zlashtirish, kompyuter xonalarining faoliyatini tashkil etish va ulardan samarali foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Geografiya ta'limida ham kompyuterlardan foydalanish o'z natijasini bermoqda. Kompyuterdan foydalanib dars o'tish noanaviy bo'lganligi uchun emas, balki o'zining qulay va qiziqarli dars uslubi bo'lgani uchun ham boshqa dars uslublari ichida ajralib turadi. Kompyuter orqali o'quvchi ham, o'qituvchi ham o'z vazifasini to'la bajara olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bunga misol qilib quydagi dars jarayonini ko'rib chiqamiz. O'quvchilar bilan yangi dars jonlantiriladi. Bu dars sentyabr oylarida 7-sinf o'quvchilari bilan o'tiladi, chunki ular 6-sinfda beysik dasturlash tili, xizmatchi va buyruq so'zlari bilan tanishgan, bema'lol shakllar chizib, ularga dastur tuza oladilar.

Dars o'quvchining kirishi so'zi bilan boshlanadi. O'qituvchi, aziz o'quvchilar, siz quyi sinflarda kompyuter bilan qanday ishlashni o'rgangansizlar. Endi esa kompyuter yordamida yozgi ta'tilda qayerlarga boringiz, nimalarni uchratdingiz, shularni dastur orqali ifodalaysiz.

O'quvchilar dastur tuzishga kirishadilar. Dasturni esa "Gul va Quyosh" deb nomlaydilar.

Birinchi o'quvchi kompyuterda "Gul va Quyosh"ni tasvirlaydi.

Ikkichi o'quvchi: "Yozgi ta'til davomida eng qiziqarli va esda qoladigani- bu mening dadamning tiko mashinasida sayoxatga chiqanimiz bo'ldi" deb, u manzarani dastur orqali davom ettiradi.

Uchinchi o'quvchi: "Birinchi marta samolyotda uchishim" deb dasturga samolyot rasmini kiritadi.

Shunday qilib, o'n o'quvchi kompyuterlarining ekranlarida shakl yasash operatorlari yordamida chizilgan turli xil shakl, tabiat manzaralarni, o'simliklarini, uchratgan hayvonlarini tasvirlagan bo'ladilar. Ulardan biri daraxt ostida chumoli ini va quyosh rasmini chizadi. Quyoshga qaragan tomon daraxtning shoxlari ko'proq, chumoliini ham shu tomonga qaragan holda chizilgan.

O'quvchi: aytingchi, nega daraxtlar shoxi notekis, quyosh tomondagisini serbargli qilib chizding?

O'quvchi: daraxtlarda sodir bo'ladigan fotosintez jarayoni quyosh ta'sirida sodir bo'ladi. Shuning uchun daraxtlar ko'proq fotosintez bo'lishi uchun quyosh nuridan ko'proq foydalanish uchun barglarini shu tomonga qaratgan. Shunga ko'ra quyosh tomonga qaragan tomoni ham sershoxli bo'ladi.

O'qituvchi: nega chumoli inining og'zini daraxt tomonga emas quyosh tomonga qaratib qo'yding?

O'quvchi: ular ham quyosh nuridan baxramand bo'lishi uchun inining og'zini quyoshga qaratadi.

O'qituvchi: bu narsalardan biz nimalarni aniqlab olishimiz mumkin?

O'quvchi: agar biz biror joyga borib, adashib qolsak shimol va janubni, g'arb va sharqni qayerda ekanini aniqlashimizda yordam beradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish, qolaversa, noan'anaviy dars o'tish an'anaviy dars tizimidan qo'yidagi jihatlar bilan farq qiladi.

- o'quvchini o'z ustida ko'proq ishlashga, adabiyot qidirib o'qishga, o'zi mustaqil faoliyat ko'rsatishga undaydi;
- o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini orttiradi;
- o'quvchilarni qo'shimcha savol berish va ularni javoblarini tinglash imkoniyatini beradi;
- o'quvchi bilimni odilona baholashni ta'minlaydi.

2.2. GEOGRAFIK HODISA, JARAYON VA QONUNIYATLARINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA O'RGANISH

Geografiya darslarining jonli mazmunli va qiziqarli bo'lishida didaktik ko'rgazmali qurollarning ahamiyati benihoyat kattadir. Ko'rgazmali qurollarning yana bir muhim jihati shundaki ular o'quvchi va talabalarning eslab qolish qobiliyatini o'stirishda ham o'ziga xos rol o'ynaydi. Chunki ko'z bilan ko'rish orqali tasavvur hosil qilish bilan eshitib tasavvur qilish orasida katta farq bor.

Geografiya fani o'zining qiziqarli, o'zgaruvchanligi xilma-xilligi, tabiatni o'rganuvchanligi bilan boshqa fanlar orasida ajralib turadi. Shuning uchun geografiya o'qitish metodikasi ham mazmunli va qiziqarlidir.

Ayniqsa, geografiya fani o'qitishda qo'shimcha ma'lumotlarning o'rni beqiyosdir. Chunki geografiya tabiatga bog'liq fan bo'lganligi uchun uni tasvirlarsiz tasavvur qilish qiyin.

Geografiya o'qituvchisi qanchalik tajribali, nutqi chiroyli, ravon va sodda bo'lmasin, u darsni quruq so'zlar bilan o'tmasligi kerak. O'qituvchilarga o'zi tug'ilib o'sgan joylarning tabiatidan keskin farq qiluvchi landshaftlar haqida bilim berilganda uning tasvirini ko'rsatib berishi o'quvchilarni shu fanga bo'lgan qiziqishini orttirib boradi. Tasvirli o'quv qurollaridan foydalanish geografik tasavvurni shakllanishiga tushunchalarning aniq o'zlashtirilishiga yordam beradi. O'qituvchi tasvirli materiallardan foydalanayotganda o'quvchilar diqqatini o'rganilayotgan obyekt tasavvurini kuzatishga uning o'ziga xos belgilarini aniqlashga va umumiy xulosalar chiqarishga jalb etishi va tasvirga izoh berib borishi kerak.

“Biz ravshan ta'surotlarni ko'rish orqali hosil qilamiz, chunki biz ko'zimiz bilan ko'rgan narsalarni osonroq tasavvur qilamiz. Ayni bir vaqtda

ham ko'rish, ham eshitish ham musul harakati yordami bilan hosil qilingan ta'surot esa ayniqsa ravshan tasavvur hosil qiladi va xotirada uzoq saqlanadi.” – deb aytgan edi rus pedagogi K.D.Ushinskiy. Darhaqiqat didaktik ko'rgazmali qurollar ayrim geografik hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni insonning tabiatiga ta'sirini va uning turli sharoitdagi faoliyatini aks ettirib talaba va o'quvchilarning dunyo qarashini shakllantirishga va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yordam beradi. O'quv kabinetlarning texnik asbob uskunalari va eng yangi uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlanganligi hamda bir qator didaktik materiallarning mavjudligi bunga ancha yordam beradi. Shu bilan birga dars berish jarayonida qo'l bola didaktik materiallardan foydalanish ta'lim tarbiya samaradorligini yanada oshiradi.

Hozirgi zamon sharoitida ko'rgazmalilik tamoyili o'qituvchiga quyidagi talablarni qo'yadi.

Birinchidan o'quv materiallarni o'rganish jarayonida hissiy obrazlarning zarurligini tushunish kerak.

Ikkinchidan hissiy obrazlardan darsda o'quvchilar rivojlanishining mustaqil jihatida yoki mavhumlikni shakllantirish vositasi sifatida foydalanish xususiyatini aniqlash lozim.

Uchinchidan darsda hissiy obrazlar qaysi bir ko'rgazmali qurollar yoki texnikaviy vositalar yordamida shakllanishini hal qilib olish kerak.

To'rtinchidan o'quvchining bilish faoliyatidan tabiatdagi mavjud narsalarni qurshab turgan voqelik hodisalarni tasavvur etish tendensiyasini vujudga keltirishi.

Beshinchidan o'quv materiali yig'indisi va tegishli shart – sharoitlarning mavjudligi. Ko'rgazmalilik ta'limda onglikni ta'minlash vositasidir. Bunda o'z vaqtida mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy alohida e'tibor bergan edi. U “Ko'rgazmali o'qitish haqida” nomli maqolasida “Ko'rgazmali o'qitishning o'zi nima?” degan so'roqqa shunday javob beradi: “Bu shunday o'qituvchi, u mavhum tasavvur va so'zlarga emas, balki bolalar bevosita idrok qilgan aniq

obrazlarga asoslanadi, bu obrazlarni bolalar muallimning rahbarligi ostida o'qitish jarayonining o'zida bilib olishganmi, yoxud ilgari mustaqil kuzatish natijasida bilib olishganmi, baribir, xullas, murabbiy bolaning qalbidan tayyor obrazlar topib o'z ta'limini ana shu obrazlar bilan asoslaydi".

Endi ko'rgazmalilik tamoyilini onglik tamoyili bilan yonma - yon qo'yib o'rganishga ehtiyoj bormi, degan savolning tug'ilishi tabiiydir. Ta'limda ko'rgazmali qurollardan foydalanish o'quvchining tafakkuri darajasiga ko'ra belgilanadi. Kichik maktab yoshidagi (7 – 11 yosh) bolalarda aniq fikrlash ustun bo'lib ular rasm, jadvallar asosida narsa – voqealarning mohiyatini chuqurroq anglaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda aniq – obrazli, harakatchan – obrazli fikrlash formalarning taraqqiy etganligi ta'limda ko'rgazmali qurollardan ko'proq foydalanishni taqazo etadi.

Bolaning yoshi ulg'ayib, ijtimoiy tajribasi osha borgan sari, unda tafakkurning mavhumlash, umumlashtirish, ajratish kabi sifatleri rivojlanadi, bola induktiv va deduktiv xulosalar chiqarishni o'rganib oladi. Katta maktab yoshidagi (11 – va undan yuqori yosh) bolalar bilimlarini ta'riflar, aksiomalar, xulosalar, farazlar shaklida qabul qila oladi. Bu yoshdagi bolalarda ratsional, navari fikrlashning o'sganligi ko'rgazmali qurollar turini o'zgartishni taqazo etadi. Endi ko'rgazmali qurol sifatida turli chizmalar, simvolli belgilar, diagrammalardan foydalanish imkoniyati tug'iladi. Ana shularning barchasi ko'rgazmalilik tamoyilining onglik tamoyili bilan uzviy bog'liqligini isbotlaydi va ularni yonma – yon tavsiflashni talab etadi. Ko'rgazmalilik juda ko'p tortishuvlarga sabab bo'lgan, uzoq ta'rifga ega ta'lim tamoyillaridan biridir. O'rta asrlarda verbal ta'lim keng tarqalgan edi. Verbal ta'limiga ko'ra, narsa – hodisalar oldin so'z (nutq) vositasidir izohlanadi, so'ngra o'rganilgan narsalarning rasmi, sxemasi ko'rsatiladi.

Bunday ta'limda so'z birinchi o'rinda turadi. Ta'limning yo'nalishi "so'zdan narsaga" shaklini oladi. Unda mexanik yodlashga keng o'rni beriladi. Hatto uyg'onish davri gumonisti Errazm Rotterdamskiy (1467 – 1536) o'z

pedagogik qarashlarida bola oldin so'zni, keyin narsani tushunsin, deb targ'ib qilgan edi. Verbal ta'limida fan tarixida birinchi bo'lib ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561 - 1620) tanqid etgan. Uning sensualistik falsafasiga ko'ra "bilish ezgulikdan boshlanadi". U hodisalarni kuzatish eksperiment yo'li bilan o'rganish mumkin, deb hisoblardi. Frensis Bekonning sensualistik falsafasini pedagogik nazariya va pedagogik amaliyotda birinchi marta Ya.A.Komenskiy tadbiq etgan. U "Buyuk didaktika" kitobining "Hayotni davom ettirish asoslari" bobida ko'rgazmalilik tamoyilini quyidagicha asoslagan edi: ongda sezgilardan tashqari hech narsa bo'lmaydi, aql fikrlash, mulohaza qilish uchun sezgilarga (sezilgan narsalarga) tayanadi. Fikrlash ichki sezgilar vositasida takomillashadi. Narsalar – mag'z, so'z po'stloq. Ta'limda ko'rib bo'ladigan narsalar ko'zga eshitiladigan narsalar quloqqa hidlanadigan narsalar barmoqlarga ta'sir etmog'i kerak.

Fransuz ma'rifatparvari Jan Jak Russo Ya.A.Komenskiydan bir asr keyin "Mahmaddona o'qituvchi mahmaddona shogirdlarni tarbiyalaydi. Narsalarni, narsalarni bering", - deb talab etgan edi. K.D.Ushenskiy ko'rgazmalilik tamoyilini asoslash uchun quyidagi o'xshatishni keltiradi. "O'rgimchak juda ham nozik ipni bir oyog'i bilan emas, balki ko'p oyog'i bilan ishlab olib uning ustida hayron qolarli darajada epchillik bilan to'g'ri yuradi: bir oyog'i tig'anib ketsa ipini ikkinchi oyog'i bilan ushlab qoladi." U shu o'xshatishga asoslanib o'qituvchilarga shunday maslahat bergan. "Bolaning esida biron narsaning mahkam o'rnashib qolishini xoxlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'z, quloq, muskul sezgisi va hatto agar iloji bo'lsa hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilish kerak".

Shunday qilib Ya.A.Komenskiydan K.D.Ushenskiygacha bo'lgan davrda ko'rgazmalilik tamoyilining ikkinchi shakli "Narsadan so'zga" paydo bo'ladi. Garchan ko'rgazmalilik tamoyilining "Narsadan so'zga" shakli bolaning xotirasiga asoslangan bo'lsa – da u o'quv tarbiya ishlarida ulkan burilish bo'ldi.

Bizning asrimizda – ilmiy – texnika inqilobi sharoitida ko'rgazmalilik tamoyilini amalga oshirishning uchinchi shakli – “So'zni (nutqni) ko'rgazma qurolga uyg'unlashtirish” g'oyasi paydo bo'ldi.

Hozirgi paytda ko'rgazmalilik tamoyili doirasi ancha kengaydi. Nutqni ko'rgazma qurol darslik harakatchan didaktik materiallar texnik vositalar bilan uyg'unlashtirish ko'rgazmalilik amalga oshirishning asosiy uslubiga aylanmoqda.

Biz mashg'ulot davomida mavzuga oid ma'lumotlarni berishda turli didaktik materiallardan foydalanamiz. Ushbu materiallardan bevosita yoki vositalar yordamida foydalanishimiz mumkin. Avvalo biz didaktik materiallarning bevosita qo'llaniladigan oddiy turlari bilan tanishib chiqamiz. Bunday didaktik materiallar qanday maqsadda qo'llanilishiga qarab bir necha turlardan iborat bo'ladi.

Oddiy didaktik materiallarning klassifikatsiyasi 1-chizma



Geografiya ta'limida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar va ularning turlari. Har bir geografiya o'qituvchisi ushbu fan bo'yicha ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan eng muhim ko'rgazmali qurollar va ularning turlari haqida zarur tasavvurga ega bo'lishlari kerak. O'sib kelayotgan ta'lim va tarbiya berish samaradorligini hamda sifatini ko'tarishga, o'quvchilarning bilish

faoliyatining rivojlantirishga qaratilgan. Ta'lim metodlarini takomillashtirish, ularning aqliy qobiliyatini taraqqiy ettirish har bir o'quvchining vazifasidir. Maktab o'quv kabinetlarining texnik asbob – uskunalar va eng yangi metodik qo'llanmalar bilan ta'minlanganligi hamda bir qator didaktik materiallarning mavjudligi bunga ancha yordam beradi. Lekin shu bilan birga dars berish jarayonida qo'lbola didaktik materiallardan foydalanish ta'lim – tarbiya samaradorligini yana ham oshiradi. Har bir geograf bakalavrga o'z o'qituvchilik faoliyatida qo'lbola didaktik ko'rgazma materiallardan foydalanishga ehtiyoj tug'iladi. Hozirgi vaqtda geografiya ta'limida didaktik ko'rgazmali qurollarning quyidagi usuli va shakllaridan foydalaniladi.

Pape – mashedan relyef shakllarini tayyorlash metodikasi.

Pape – mashedan tayyorlash uchun keraksiz gazeta yoki yozuv qog'ozlarini olib qo'l bilan juda kichik zarrachali bo'laklarga maydalanadi va temir idishga suv solib qaynatiladi qaynagan suvga yog'och yelim qo'shib aralashtiriladi. Shundan so'ng eritmani sekin qaynatilib boriladi va unga maydalangan qog'oz bo'laklari qo'shiladi. Muntazam ravishda taxminan 3 soat mobaynida aralashtirib boriladi. So'ngra tayyor mahsulotdan 4 – 5 soat mobaynida o'quvchilar har xil rel'ef shakllarini yasashlari mumkin. Hosil bo'lgan rel'ef shakllarini kerakli rangli bo'yoqlar bilan bo'yaladi. relyef shakllarini pape – nashirdan ishlangandan oldin gipsdan andoza tayyorlab olinadi.

Gipsdan relyef shakllarini tayyorlash. Gipsdan relyef shakllarini tayyorlash uchun alibaster suv, so'da taxta yoki oyna bulagi, yelim idish (kaptok bo'lagi) plastilin va lineyka kerak bo'ladi. Elim idishda aralashma tayyorlanadi. Oyna yoki taxta bo'lagi relyefning shakli gorizontallar orqali ifodalanib eng birinchi tagidagi gorizontallarni plastilin bilan devor qilib o'rab chiqiladi va unga tayyorlangan aralashma solinadi. Shu kabi qolgan hamma gorizontallar to'latilib chiqiladi. So'ngra qum qog'oz bilan tekislanadi. Hosil bo'lgan relyef

shakli ustiga bir qancha vaqt bosma qog'oz va yukori qismga qattiqroq qog'oz yelimlanadi. Eng so'nggi kerakli ranglar bilan bo'yaladi.

Geografik xaritali kubiklar tayyorlash.

Bu ishni tayyorlash o'quvchilardan ko'p mehnatni talab etmaydi, faqatgina ulardan salgina qunt talab qiladi. O'quvchilar kubuklarni yog'ochdan yoki karton qog'ozdan tayyorlashlari mumkin. Yog'ochning to'rt tomoni tekislanib olinadi va to'rt olti sm qilib kesiladi. Kubiklarning bir tomoniga kerakli xaritalar yelim bilan yopishtiriladi va qaychi bilan kesiladi. Shunday qilib, qolgan tomonlari ham shu tarzda tayyorlanadi. Kubuklarning umumiy hajmida idish tayyorlanib ular shu idishga solib qo'yiladi. Kubuklardan har xil xaritalar tayyorlash mumkin, bu esa o'quvchilar bilimini ziyrakligini va chaqqonligini oshiradi.

Ko'rgazmali qurollar: xarita, jadval, diagramma, grafik tarzidagi ishlarni tuzish va tayyorlash.

Bu ishlarni qay tarzda tuzish kerakligi o'quvchilarga o'rgatiladi. Bunda eng avvalo qaysi rang bilan ifodalash kerakligi tushuntiriladi. Chizma asosan qora va havo ranglarda chizilgan ma'qul. Har bir darslikning mavzusi iloji boricha kerakli chizmalar orqali ifodalansa yaxshi bo'ladi. Ayniqsa shu kerakli chizmalar tayyorlanayotganda o'quvchi doskada tayyorlangan chizma orqadagi o'quvchilarga yaxshi ko'rinishini ham hisobga olish kerak. Dars mavzulari ko'rgazmali qurollar asosida tushuntirilsa darsning sifati va samaradorligi yuqori bo'ladi. Bu esa o'quvchilar bilimlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Relyef shakllarini xaritadan tayyorlash. Relyef shakllarni tayyorlash uchun karton qog'oz qaychi yelim va biror hududining gorizontallari bilan ifodalangan xaritasi kerak bo'ladi. Eng avvalo quyi qismdagi birinchi gorizontall kesib olinadi va xuddi shu shaklda karton ham kesiladi. Qolgan gorizontallar

ham shu tarzda tayyorlanib olinadi. So'ngra esa kesilgan hamma gorizontallar va xaritallar bir - biriga ustma – ust yelimlanib olinadi. So'ngra eng tagiga shu hududning kattaligidagi karton yelimlab qo'yiladi

O'qituvchi o'z mehnatining natijasiga darsda ta'limning ko'rgazmali vositalardan foydalanib erishishi mumkin. Bu vositalar darsni yaxshiroq, to'liqroq o'quvchilar tushunib yetishida yordam beradi. Akademik Pavlovning isbotiga ko'ra inson so'z orqali 2 sek.da o'rganilayotgan jismni o'zlashtirilib olishi mumkin ekan. Shunday ekan, o'qituvchi darsda ko'rgazmali quoldan foydalanishi ham natijaga erishishning bir ko'rinishidir. Ko'rgazmali vositalarning ahamiyati haqida "Suratni sinfga olib kirsang, soqov ham tilga kiradi"- deb aytilgan so'zning o'zi fikrimizning dalilidir.

2.3. GEOGRAFIYA TA'LIMDA RASMLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Rasm darsda bilim manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan o'rganiladigan obyekt va hodisalarni ko'rib tasavvur qilishda rasmlarning ahamiyati kattadir. Rasmlar joyining asosiy xususiyatlarini ochiq va ravshan ko'rsatib beradi. Rasmda tasvirlangan tabiiy geografik jarayonlarni (vulqon otilishi, tabiat zonalarining lanshafti, daryolar va ularning relief shakllari) mushohada hamda muxokama qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'qituvchi bir necha savollar berib, o'quvchilar e'tiborini rasmning asosiy qismiga tortadi. Rasmni karta va globus bilan bog'liq holda o'rganish, undagi tasvirni kartadan topish o'quvchilarning rasm bilan kartani birga qo'shib o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Darsni yangi materialga, mavzuga tegishli rasmlarni tahlil qilishdan boshlash ham mumkin.

Darslik rasmlari muhim kurgazmali qurol vazifasini ham o'taydi. Uni darsda tahlil qilish va xulosalar chiqarish, matn mavzusiga oid aloqadorlik tomonlarini topishda katta ahamiyatga ega. IV-VI sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatlari bir muncha sust. Shu tufayli darslikdagi rasmlar ularda qiziqish va faolligini oshirishga yordam beradi. O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarni rasm va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalar bilan ishlash metodlarini o'rgatishdan iborat. Buni qo'yidagicha tartibda amalga oshirish mumkin.

1. Rasmning mavzusini o'rganish;
2. Uni butunligicha o'rganish;
3. Rasmni qism-qismlarga bo'lib tahlil qilish;
4. Rasmda qismlar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganish;
5. Rasm haqida umumiy tasavvur hosil qilish;
6. Rasmga qarab xulosalar chiqarish.

Masalan, daryo sistemasi rasmni quyidagicha tahlil qilish mumkin. O'quvchilar diqqatiga qo'yidagicha savollar havola etiladi.

1. Rasmda daryo sistemasining qaysi elementlarini ko'rib turibsiz?
2. Daryolar qayerdan boshlanadi, ularni nima deb ataysiz?
3. Tog'lardagi qor va muzlar qanday paydo bo'lgan?
4. Rasmda suv ayrigichini toping. Suv ayrigichi nima deb ataladi?
5. Daryoning o'ng va chap irmoqlarini toping?
6. Daryoning mansabi va manbai deb nimaga aytiladi? Ularni rasmdan toping.
7. Rasmda tekislik daryosi aks etganmi yoki tog' daryosi?
8. Rasmdan tog' chuqqisi, yonbag'ri, etagini ko'rsating va hokazo.

Ushbu rasmni tahlil qilish o'quvchilarda nafaqat rasmlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi, balki «daryo sistemasi» tushunchasining to'laqonli shakllanishiga ham yordam beradi. Rasm bilan matnning bog'liqligini 4 ta guruhga ajratish mumkin.

1. Matn materiallari rasm material bilan to'ldiradi.
2. Rasm materiallari matndan olingan materiallar bilan to'ldiriladi.
3. Rasm va matn bir-birini to'ldirmaydi. Rasmdagi materiallar betaraf bo'lib qoladi.
4. Matn va rasmdagi materiallar bilan uyg'unlashgan bo'ladi.
5. Matnni rasmsiz, rasmni matnsiz tasavvur qilish qiyin. Bu ko'proq tekst kartalariga bog'liq.

Darslik rasmlari bilan ishlashda eng asosiy e'tiborni ular bilan mustaqil ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor bermoq kerak. Ularni o'qish metodlarini o'quvchilarga eslatma sifatida daftarlariga yozib qo'yishlari foydadan xoli emas. Bu eslatma taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Rasm pastidagi yozuvni diqqat bilan o'qing.
2. Mavzu matnida ushbu rasmning tushuntirilishi yoki izohi berilganmi?
3. Ushbu rasmda nimalar aks ettirilgan.
4. Undan foydalanib matn haqida gapiring.

5. Sizningcha, rasmning qanday kamchiliklari bor? Siz unga qanday qo'shimchalar qo'shgan bo'lar edingiz?
6. Rasm bo'yicha qisqacha xulosa qiling.
7. Darslik matini bo'yicha siz qanday rasm taklif qilgan bo'lardingiz va hokazo.
8. Ilg'or tajribalar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, darslik matndagi rasmlar bilan ishlashda o'quvchilar dastlabki paytlarda bir muncha qiynaladilar. Darslarda ular bilan izchil va muntazam ishlash yaxshi natijalar beradi. Ayniqsa, o'quvchilarni darslik matni bo'yicha qo'shimcha rasmlar chizib kelishga, mavjudlarini to'laqonli egallashga yordam beradi. Bu ularda darslik bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirilishi muhim omil hisoblanadi.

Kodoskop bilan ishlash. Kodoskop (kod fransuzcha-ayrim so'z, raqam, harflar tarzidagi shartli belgilar sistemasi va "skop" grekcha-ko'rish, kuzatish ma'nosini bildiradi)-maxsus shaffof plyonka yoki shishaga tushirilgan yozuv rasm, sxema, chizmalar, shuningdek maxsus yirik o'lchamli diopozitivlarni ekranda ko'rsatadigan asbob.

Kodoskopda ko'rsatishga mo'ljallangan tekst rasmlarni o'qituvchi darsgacha, shuningdek dars jaryonida ham tayyorlashi mumkin. Yozuvlar va rasmlar stilofan lentaga avtoruchka, siyoh, flamastir va tish bilan yoziladi. Ko'rsatilgan lentalar esa maxsus galtakka uralaveradi. Dars tamom bo'lgach, yozuvlar uchirib tashlanishi yoki qayta ko'satish uchun saqlab qo'yilishi mumkin.

Kodoskopda, mazkur apparat uchun tayyorlangan yirik o'lchamdagi diopozitiv-transporantlar ko'rsatish, ayniqsa qiziqarli. Odatda bir mavzuga oid bir necha transporantlar navbat bilan birining ustiga ikkinchi qo'yib ko'rsatiladi, bu esa biron jarayon yoki hodisaning izchilligini ko'zlatish imkoniyatini vujudga keltiradi. Kodoskop, odatda sinfda o'qituvchi stoli ustiga o'rnatiladi. Tasvirni katta o'lchamda ko'rsatish ehtiyoji tug'ilganda kodoskop sinf o'rtasiga (ekrandan biroz uzoqqa) o'rnatiladi.

Kodoskop uchun tayyorlangan maxsus diopozitiv-transporatlarning o'lchami 140x104 mm bo'lib, apparatga o'rnatish uchun chekka tomonida ikkita

teshigi bo'ladi. Transporantlarni sinfni qorong'ilatmasdan ham ko'rsatish (demonstratsiya qilish) mumkin. Bu qulaylik ekrandagi zarur va karta bilan bog'lab o'rganish imkonini beradi. Transporantlarni ko'rsatish vaqtida obyektlarning murakkab formalari va elementlarini izohlash obyekt va hodisalarning o'zgarishini bosqichlar bilan ko'rsatish mumkin.

2.4. QO'SHIMCHA MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH BORASIDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI.

Har bir sohada izlanishlar olib borilganda shu sohaga tegishli muammolar ham ko'zga tashlanadi. Aynan geografiya darslarida kundalik axborot ma'lumotlardan foydalanilganda bir qancha muammolarga duch kelish mumkin. Hozirgi kunda nashr qilinayotgan ro'znoma va jurnallarning sifati ilmiyligi talabga javob bersada ularning obuna bahosi judayam qimmatdir. Masalan "Fan va turmush" jurnali 2 oyda bir marta chop etilsada bir yillik obuna narxi 38628 so'mni "Ekologiyasi" xabarnomasi jurnali har oyda bir marta nashr etiladi bir yillik obuna narxi esa 108696 so'mni tashkil etadi.

Respublikamizda nashr etilayotgan ro'znomalarning obuna narxi ham juda qimmat bo'lib "Ma'rifat" ro'znomasining bir yillik obuna narxi 74760 so'mni "O'zbekiston ovozi" ro'znomasi bir yillik esa 78780 so'mni "Xalq so'zi" ro'znomasining bir yillik obuna narxi esa 106248 so'mni tashkil etadi.

Maktabda dars berayotgan geografiya o'qituvchisining esa bu ro'znoma va jurnallariga yakka tartibda a'zo bo'lish imkoniyati mavjud emas.

Mening fikrimcha maktab o'qituvchilari ro'znoma va jurnallarga obuna bo'lishganda aynan o'quv jarayonida foydalanish imkoni bo'lgan ro'znoma va jurnallarga obuna bo'lsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi paytda olinayotgan axborotlar o'ziga xos tezkorlikni jalb etadi. Darhaqiqat bilim bu axborotlar majmui ma'lumotlar yig'indisidir. Axborot esa bilim ko'nikma malakalar manbai izohidir. Inson hayoti davomida doimo bilimga axborotga intilgan va tabiat jamiyat taraqqiyoti uchun muayyan ma'lumotlarni egallay olgan. Bilimlarni qo'lga kiritish ko'nikma malakalarni o'ziga hosil qilishning yo'llarini qurolini kashf etishga intilgan va bunga ma'lum darajada erisha olgan.

XX asr fan texnika taraqqiyoti asri bo'lib olinayotgan barcha axborotlar o'quvchi qo'lga yetib keladi. Men tanlagan mavzu hozirgi zamonga mos dolzarb hisoblansada maktab va kollejlarda o'tilayotgan geografiya darslarida kundalik axborot ma'lumotlardan foydalanish talab darajasida deb bo'lmaydi. Pedagogik amaliyot davrida geografiya darslarini tahlil qilganimda darslik ma'lumotlardan foydalanib dars o'tilayotganligiga guvoh bo'ldim. Hozirgi maktab o'quvchisi ro'znoma jurnal radio television ma'lumotlardam emas balki internet ma'lumotlardan xabardor bo'lishga intiladilar . Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarning deyarli barcha ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida jadallashgan telekommunikatsion moslamalar bilan o'zaro munosabatda bo'lishning elektron imkoniyatlari yaratilmoqda.

So'nggi yillarda internet texnologiyalaridan masofadan o'qitish texnologik asoslari haqida ko'p gapirilmoqda. Bu esa o'z vaqtida texnikaviy aloqa vositalarining yuksak imkoniyatlari mavjudligini hamda internet kompyuter tarmog'ining keng tarqalganligidan dalolat beradi. Masofasi o'qitishning turli modellari uchun mavjud bunday asosning afzallik tomoni shundaki unda axborot kommunikativ texnologiya vositalarining didaktik xususiyatlari mavjud bo'lib ular quyidagi omillar orqali belgilanadi.

1. Istalgan hajmdagi axborotlarni turli masofalarga favqulotda tez yetkazib berish imkoniyatining mavjudligi
2. O'z ish joyidan turib internet tarmog'i orqali axborotni tez va oson o'zgartirish imkoniyatining borligi
3. Muayyan axborotni kompyuter xotirasida kerakli vaqtida saqlab turish uni tahlil qilish ishlab chiqish va boshqa imkoniyatlarning asoslanganligi
4. Turli axborot manbalariga birinchi navbatda internet Web slaydlariga yo'qotilgan ma'lumotlar bazasiga internet tizimi orqali butun dunyo bo'yicha ko'p sonli konferensiyalarga kirish va ushbu ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyatining mavjudligi
5. Elektron konferensiyalar kompyuter audio va video konferensiyalarni tashkil qilish imkoniyatining asoslanganligi

6. Internet tarmog'iga ulangan istalgan hamkor bilan o'zaro muloqotda bo'lish imkoniyatining borligi
7. Elekktron konferensiyalar orqali istalgan savol bo'yicha ma'lumotni sorab olish imkoniyatining mavjudligi
8. Olingan materiallarni o'z disketasiga ko'chirib o'tkazish va ularni ochib ko'rib foydalanuvchining ular bilan o'ziga qulay vaqtida qachon va qanday ishlash imkoniyatining kengligi. Internet axborotlarning keng tarqalishi vaqt moliyaviy to'siqlarni bartaraf etish sezilarli darajada kamaytirdi. O'zining intergratsiyalashgan axborot tizimini tuzishga olib kelda. Albatta bu holat ta'lim tizimi uchun katta ahamiyatga ega chunki axborot barcha ta'lim dasturlarining mavjud muhitidir.

Masofali o'qitish internet tarmog'i Web texnologiyalariga asoslanib ishlashga moslashgan axborot texnologiyasi hisoblanadi. Chunki masofadan o'qitish nafaqat o'qotuvchi balki aloqa qilish imkoniyatlarini turli xildagi aqliy va ijodiy faoliyat hamkorligini joriy qilish imkoniyati katta bo'ladi.

Maktab geografiya ta'limida faqatgina darslikdan foydalanib emas balki kundalik axborot ma'lumotlardan foydalanilsa darsning samaradorligi yanada oshadi. Men pedagogik amaliyotni o'tish davrida 9-sinflarda "Jahon iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi" kursini o'tishda aynan kundalik axborot ma'lumotlardan foydalandim. Bunda o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari ortib boradi.

Dars jarayonida ro'znoma radio television ko'rsatuvlardan aynan o'qituvchining o'zi emas o'quvchilar ham foydalanishlari lozim. Mavzu tugatilganadan so'ng mustaqil izoh tarzida kundalik ma'lumotlardan yozib o'rganib kelish topshirilsa o'quvchining o'z ustida ishlashga roznoma jurnallardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishlariga imkoniyat yaratadi.

Bizga ma'lumki maktablarda darslarning davomiyligi 45 daqiqani tashkil qiladi. O'qituvchi shu 45 minut oralig'ida dars o'tish etaplariga to'liq amal qilsa vaqt taqsimotida noqulaylik vujudga kelmaydi. Shu vaqt oralig'ida 3-5 daqiqa kundalik axborot ma'lumotlar uchun fokfeshdyf maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim vazirligiga qarashli bo'lgan barcha umum

ta'lim maktablairida nashr etilayotgan darsliklar har 3-5 yil oralig'ida qayta nashr ettiriladi. Bu yillar orasida har bir soha bo'yicha qator o'zgarishlar yangiliklar vujudga keladi. Bu yangiliklarni har yilda darslikka kiritish imkoni bo'lmaydi shunday ekan aynan geografiya ta'limida kundalik axborot ma'lumotlardan foydalanish g'oyat muhimdir.

Men geografiya bo'limini tugatganimdan so'ng geografiya o'qituvchisi sifatida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonida muhtaram ustozlarimizdan olgan bilimlarim nur misoli yo'limni yoritib turadi. Kelgusida bu mavzu bo'yicha izlanishlarimni davom ettirib alohida qo'llanma sifatida ishlab chiqish niyatidaman.

**Jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilamay,
respublika fuqarolarining yangi avlodini
tarbiyalamay, erkin mustaqil fikrlovchi
shaxsni shakllantirmay turib, farovon,
qudratli, demokratik davlat, erkin
fuqarolik jamiyati barpo etib bo'lmaydi.**

I.A.Karimov.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Geografiya fanlari ham boshqa fanlar qatori yangicha sharoitda rivojlanib bormoqda. O'quv jarayonida u yosh avlodga mamlakatlarning o'ziga xos tabiiy resurslari, aholisi va xo'jaligining hududiy jihatlarini, jahon siyosiy kartasi va hamjamiyatining nufuzini tobora ortib borishini o'rganishga yordam beradi. Nazariy va amaliy yo'nalishda esa mazkur fan mamlakatlarining mintaqaviy siyosati, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan bog'liq muammolarini hamda bozor munosabatlariga o'tish davrida xalq xo'jaligining turli tarmoqlari sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, infrastruktura tizimini shakllantirish, ijtimoiy ekologiya kabi muhim masalalarini tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega.

“Kadrlar tayyolash milliy dasturi”dagi ta'lim tizimini yaxlit axborot makonini vujudga keltirish deb nomlangan bandida “Zamonaviy axborot texnologiyalari kompyutirlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining mavqei oshib boradi televidiniya va radioning ta'lim dasturlari intellektuallashuvi ta'minlanadi. Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlantiriladi o'quv va o'quv uslubiy ilmiy adabiyotlar va ma'lumotnomalar bilan ta'minlashning barqaror tizimi shakllantiriladi. Bu avvalo ta'lim tarbiya

jarayonini axborot texnologiyalari bilan ta'minlash o'qitishni kompyuterlashtirish ya'ni o'quv tarbiya ishlarini didaktik vositalar majmui asosida qurish masalasini hal etishni nazarda tutadi.

Pedagog olim J.G.Yo'ldoshev ta'kidlaganidek "O'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni usul va uslublarni o'qitish shakllari metod va vositalarni izlaydi ularni takomillashtiradi. Shu boisdan ham "pedagogik texnologiya", "didaktik texnologiya", "ta'lim texnologiyasi" atamaları qatoridan "pedagogik innovatsiyalar" atamasi mustahkam o'rin olmoqda.

Men bitiruv malakaviy ishimni yozish davomida to'plangan ma'lumotlarim asosida quyidagi xulosa va takliflarni berishga harakat qilaman. Mening fikrimcha bitiruv malakaviy ishlar mavzusini IV kursda emas balki talabaning qobiliyatini bilimini hisobga olgan holda 2-3 kursdan belgilab berilsa shuning ilmiyligi yanada oshardi.

Malakaviy bitiruv ishimni yakunlar ekanman, shunday xulosalarga keldim.

- eng avvalo, geografiya fanini o'qitishni qo'shimcha ma'lumotlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi;
- qo'shimcha ma'lumotlar orqali o'tilgan dars jonli kechadi;
- qo'shimcha ma'lumotlar yordamida kartani o'zlashtirish oson bo'ladi;
- qo'shimcha ma'lumotlar bilan o'tilgan mavzu o'quvchilar ongiga uzoq vaqt saqlanib qoladi;
- qo'shimcha ma'lumotlar orqali har qanday fanning har qanday mavzusini osongina o'zlashtirish mumkin.
- qo'shimcha ma'lumotlar yordamida noan'anaviy dars tashkil qilish o'z samarasini bermay qolmaydi,
- qo'shimcha ma'lumotlar bilan o'tiladigan darslar o'quvchilarni fanga bo'lgan muhabbatini oshiradi;
- qo'shimcha ma'lumotlar yordamida dars o'tish va tasviriy vositalarni o'quvchilar bilan birga tayyorlash ularning dunyoqarashini shakllantiradi, ekrin fikrlashga o'rgatadi va hokazo.

Ushbu ish kelajak avlodni barkamol qilib tarbiyalashda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilsa, o'zimni baxtiyor his etardim. Zero, prezidentimiz aytganlaridek, qudratli, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish uchun shu davlatning yangi avlodlarini tarbiyalash erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirmoq zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari .-T.: 1997.
2. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlool, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. T., 1996.
3. Каримов И.А. “Ўзбекистон ХХI асрга интилмоқда”. Т. “Ўзбекистон”. 2000 й.
4. Каримов И.А. “Буюк келажак сари”. Т. “Ўзбекистон”. 1997 й.
5. Каримов И.А. “Баркамол авлод орзуси”. Т. “Шарқ”. 1999 й.
6. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. T., 2004.
7. Абдуғание О. “География дарсларида техника воситаларидан фойдаланиш”. “Ўқитувчи”. Т.,-1993й.
8. Алаев Э.Б. Социально-экономическая география. Понятийно-терминологический словарь. – М.: Мысль, 1983.
9. Akramov Z.M. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi o'quv dasturi. T., 1992.
- 10.Asanov G.R. Sotsial-iqtisodiy geografiya: termin va tushunchalar izohli lug'ati. - T.: O'qituvchi, 1990.
- 11.Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. -T.: O'qituvchi, 1994.
- 12.Axmedov E.A. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. –T., 2002.
- 13.Axmedov E.A., Boltayev M.J. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 2000.
- 14.Axmedov E.A. va va boshqalar. Mustaqil O'zbekiston. T., 2001.
15. Axmedov E.A., Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma'lumotnoma. Toshkent, O'zbekiston, 1995.
- 16.Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. -T.: O'qituvchi, 1996.

- 17.Vahobov H. Tillaboyeva M. Iqtisodiy geografiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2001.
- 18.Ro'ziyev A.R., Abirqulov Q.N. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi. -T.: "Sharq", 2002.
- 19.Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартлари ва ўқув дастури 3-махсус сон. “Шарқ”. Т., -1999.
- 20.Саушкин Ю.Г. Экономическая география: история, теория, методы, практика. – М.: Мысль, 1973.
- 21.Soliyev A.S., Axmedov E.A. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. -T.: Universitet, 2003.
- 22.Soliyev A., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. – T.: 1999.
23. Soliyev A.S., Mahamadaliyev R.Y. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –T.: Universitet, 2005
- 24.To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. –Toshkent, 1998.
- 25.To'xliyev N., Haqberdiyev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. –Toshkent, 2006.
- 26.Қурбонниёзов Р. “География ўқитиш методикаси”. “Хоразм”, Урганч-2001.
- 27.Қурбонниёзов Р. “Географиядан ўқитувчилар билимини текшириш шакли ва методлари”. Ўқитувчи. Т., -1993.
- 28.O'zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya. -T., 1997.
- 29.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T., 1992.
- 30.O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishi. Т., 1996.
- 31.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12-jild, -Toshkent, 2006.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.pedagog.uz
2. www.Ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. www.google.de

5. [www. yahoo.de](http://www.yahoo.de)

**Geografiya ta’lim yo’nalishi bitiruvchisi Yuldasheva Yashnarxon
G’anijonovnaning «Geografiya darslarida qo’shimcha ma’lumotlardan
foydalanish metodikasi» (umumta’lim maktablari misolida)
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining
R E Z Y U M E S I**

Tayanch so’zlar: qo’shimcha ma’lumotlar, didaktik materiallar, metodologiya, metodika, aqliy hujum, klaster, pedagogik texnologiya

Tadqiqot ob’ekti: Geografiya o’qitish metodikasi

Ishning maqsadi: Umumta’lim maktablari geografiya darslarida qo’shimcha ma’lumotlardan foydalanish metodikasi va uning hozirgi zamon mazmuni va istiqbollari ochib berishdan iborat.

Tadqiqot usullari: aqliy hujum, klaster, kartografik, geografik taqqoslash, dialektik, mantiqiylik, prognozlashtirish

Amaliy ahamiyati: tadqiqotning asosiy natija va xulosalaridan hamda uslubiy yondashuvlaridan umumta’lim maktablarida geografiya fanining dars soatlarida foydalanish mumkin.

Tadbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi: o’quv jarayonida amalga foydalanish maqsadida qabul qilishga tayyorlanmoqda.

Qo’llanish (foydalanish) sohasi: umumta’lim maktablari, akademik listey va kasb-hunar kollejlarining geografiya fani o’qituvchilari foydalanishlari mumkin.

The of the diploma work on the topic „The method of using additional information at Geography lessons” [as a model of comprehensive schools] by the graduate of Geography direction Yuldasheva Yashnarxon Ganijonovna.

RESUME

Basic words: further [additional] information, didactic materials, methodology, method, brain storm, cluster, pedagogical technology.

The object of investigation: Geography teaching method.

The aim of the work: The method of using additional information at Geography lessons in the comprehensive schools and to show its modern meaning and.

The methods of investigation: Brain storm cluster, mapgraphic, geographical comparison, dialectic, meaningfulness.

Practical feature: The main results, and conclusions and methodical approaches of the investigation can be used at Geography lessons at schools.

The level usage and its economical features: It is being prepared to use in the process of studying.

The sphere of using: Geography of comprehensive schools academic lyceums and vocational colleges may use it.

